

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

Shamsiyeva Barnoxon Baxromxodjayevna

TARJIMA AMALIYOTI
(O'quv qo'llanma)

Toshkent 2024

**Shamsiyeva Barnoxon Baxromxodjayevna. Tarjima amaliyoti (yapon tili).
O‘quv qo‘llanma.** “Tarjima nazariyasi”, “Gid hamrohlik va tarjimonlik faoliyati”

Ushbu o‘quv qo‘llanma tarjima va transfer masalalariga qaratilgan bo‘lib, Natsume Sosekining “Qalb” asarining asl matni va tarjimasi asosida tarjima masalalari o‘rganiladi. Tarjima jarayonida adaptatsiya masalalari, milliy xos so‘zlarning tarjimasi, moddiy va ma’naviy madaniyatga oid so‘zlarning tarjimasi yuzasidan tahlillar berilgan. O‘quv qo‘llanma 8 mavzuni o‘z ichiga olgan bo‘lib, har bir mavzu 3 akademik soatga mo‘ljallangan.

“Tarjima amaliyoti” fanining namunaviy dasturi va ishchi o‘quv dasturiga vofiq ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmada talabalarning yapon tilidan tarjima mashqlarni bajarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlariga ham keng o‘rin berilgan.

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

O‘zbek tili va adabiyoti va folklori instituti

f.f.n. E.Z.Ochilov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrasи

PhD A.B.Maxamadtoirova

*Ushbu darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining
2024 sonli buyrug‘i bilan nashrga tavsiya
etilgan.*

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024.

© B.B. Shamsiyeva

MUNDARIJA

1-mavzu. Tarjima va transfer tushunchasi.....	3
2-mavzu. Badiiy asar tarjimasida adaptatsiya.....	9
3-mavzu. Tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlari.....	20
4-mavzu. Milliy xos so‘zlarning tarjimasi.....	31
5-mavzu. Tabiat va joy nomi bilan bog‘liq so‘zlarning tarjimada berilishi.....	39
6-mavzu. Kiyim-kechakka oid so‘zlar tarjimasi.....	48
7-mavzu. Kundalik turmush jihozlari bilan bog‘liq so‘zlar tarjimasi.....	56
8-mavzu. Inson xatti-harakatlari va fe’l-atvoriga oid so‘zlar tarjimasi.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70

1-MAVZU

TARJIMA VA TRANSFER TUSHUNCHASI

Hozirgi vaqtida gumanitar ilmiy bilimlarda o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish tendentsiyasi, integratsiya tezligining oshishi munosabati bilan tilshunoslikka ham boshqa fanlardan atamalar tobora ko‘proq kirib kelmoqda. Bunday atamalarni qo‘llash bir tomondan ularning ma’nolarini kengaytirib fanlararo o‘rnini belgilab bersa, boshqa tomondan bunday terminologik birliklar fan doirasida o‘ziga xos talqinni qabul qilishi ham mumkin. Buning natijasida turli ilmiy fanlar o‘rtasida dialog yuzaga kelishi, olimlarning ma’lum bir tanlangan fanlararo terminologik birlik ostida xalqaro, fanlararo ilmiy anjumanlarda birlashishi imkoniyatini beradi.

Keyingi yillarda “ko‘chirish”, “o‘tkazish” kabi tushunchalar bilan deyarli bir ma’noda qo‘llaniladigan “transfer” atamasi ham fanga jadal suratda kirib kelmoqda. Asli lotin tilidan olingan “transfer” so‘zi yuqoridagi so‘zlar bilan sinonim sifatida ishlatilsa-da, D.V.Lobachyovaning fikriga ko‘ra, “transfer” so‘zi unga vazifadosh bo’lgan boshqa so’zlarga nisbatan stilistik jihatdan neytral, salbiy konnotatsiyalardan xoli ekanligi bilan bir qatorda turli fan yo’nalishlarida keng qo‘llanilayotgan termindir. Ushbu so‘z sohalararo eng keng tarqalgan atamalardan biri sifatida, sayyohlik, bank amaliyotlari, tibbiyat, sport, bog’dorchilik, biologiya kabi sohalarda qo‘llanilishi bilan birga adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik yo’nalishlarida ham bu atama bilan bog’liq qator ilmiy ishlarni kuzatish mumkin.

“Kembridj izohli lug’ati”da “biror narsa yoki kimsaning boshqa joyga, vaziyatga, guruhgaga ko‘chishi”, deb izoh berilsa, Oxford nashriyotida chop etilgan Lexico lug’atida “bir joydan boshqasiga ko‘chish” deb ifodalangan.

1988 yilda chop etilgan “Slovarъ inostrannыx slov” lug’atida transfer so‘zi transfert ko‘rinishida ham berilgan bo’lib, unda ushbu terminning faqatgina iqtisodiy hamda yuridik sohalarda ishlatiladigan ma’nolari yoritilgan . Lug’atning 2000, 2008-yilda qayta chop etilgan nusxasida ham hech qanday o’zgarishsiz

ayni shu izohlar ko'rsatilgan . 2004 yilda nashrdan chiqqan O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasida ham aynan shu izohlar o'zbek tiliga so'zma-so'z qilingan tarjimada aks etgan. Bundan xulosa qilinadiki, "transfer" atamasining lug'at va entsiklopediyalardagi izohlari fanlararo atama sifatida qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

S.Bochaver va V.Feženkolov o'z maqolasida transfer atamasining fanga kirib kelishi tarixi haqida qisqacha ma'lumot berishgan. Unga ko'ra, transfer atamasini birinchi marta 1905 yili Z.Freyd tomonidan olmon tilida Übertragung, ruhshunoslik fanida hodisa sifatida ilmiy atamani fanga olib kirgan. Keyinchalik ushbu atama ingliz tiliga transference, frantsuz tiliga esa transfert sifatida kirib keladi. Rus tilshunosligiga ushbu termin 1950 yillari ilmiy adabiyotlariga kirib kelgan.

Polsha-amerikalik tilshunos V.Vaynreyx 1953 yili ko'p tilli jamiyatlarda zullisonaynlikka bag'ishlangan "Aloqadagi tillar" (Languages in Contact) nomli kitob nashr etdi . Bu kitobda transfer masalasi ilk bor tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lib, unda jamiyatda ikki tillilik ta'siri natijasida bir til tizimi elementlarining boshqa til elementlari bilan o'zaro o'xshashlik tomonlari, aralashish holatlari bayon qilingan. Bir yil o'tib, 1954-yilda Z.Xarrisning "Transfer grammatikasi" (Transfer Grammar) nomli maqolasida transfer atamasi til strukturasiga nisbatan qo'llaniladi . Unda transfer tillararo tarkibiy farqlarni aniqlash vositasi sifatida tilga olingan. Va shu maqolada transfer atamasi "tarjima" terminiga sinonim sifatida ishlatilishi mumkin degan fikrni ilgari suradi, ya'ni agar tarjima ma'lumotning birlklari, shakllari va ma'nolarini boshqa tilda qayta ifodalash bo'lsa, u holda transfer turli tillarning chuqur tuzilmalari va ular orasidagi farqni o'lchash vositasi sifatida qaraladi.

Yaponiyada chop etilgan "Madaniyatlararo muloqot masalasi" (異文化コミュニケーション) nomli ilmiy maqolalar to'plamida Nishida Xiroko "transfer" atamasiga "ikki tilning aloqa olami, ikki tildan birining boshqasiga ta'siri kuchliligini, ikkinchi til birinchisining ta'sirini o'ziga singdirayotganiga aytildi" deb ta'rif beradi . Tadqiqotchi Y.Ujarevich o'zining maqolasida

“transfer” atamasiga eng sodda ta’rifni berib o’tadi. Uningcha, maqsad qilingan ob’ekt (tarjima, o’tkazishlar)ning bir nuqtadan ikkinchisiga qandaydir vosita orqali ko’chishi bo’lib, odatda bu hodisa birinchi nuqtaga tegishli bo’ladi. K.Engelъ esa madaniyatshunoslik sohasida “transfer”ni “almashtirish” tushunchasi bilan ifodalaydi . Demak, “transfer” tushunchasi biror ob’ektning A nuqtadan V nuqtaga ko’chishi bo’lib, ular albatta vosita orqali sodir bo’ladi.

“Transfer” atamasining tadqiqot mavzuyi doirasidagi ma’no chegarasi aynan tilshunoslikda paydo bo’lgan va rivojlangan. Kelgusida bu atama tilshunoslik chegarasidan chiqib, boshqa gumanitar fanlar doirasiga ham kirib bordi. Xususan, transfer tushunchasi tarjimashunoslik fanida ham o’z o’rnini topdi.

“Transfer” atamasining tarjimashunoslikdagi o’rni haqida to’xtaladigan bo’lsak, Pim Antoni o’zining monografiyasida tarjima matni hamda transferring farqini va o’zaro bog’liqlik taraflari haqida fikr yuritadi. Uning ta’kidlashicha, ingliz tilidagi “translation(tarjima)” hamda “transfer” so’zlari lotin tilidagi “translatus” (“transfere” fe’lining o’tgan zamon shakli) so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “olib o’tish, ko’chirish” ma’nolarini anglatadi. Ushbu so’zlarning bir o’zakdan hosil bo’lganini bildirib, o’zaro farqi haqida quyidagicha fikrni ilgari suradi: “tarjima – bu javobgarlik, transfer esa qayta taqdim etishdir” . Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjima bor joyda transfer ham mavjud. Transfer esa tarjimani talab qiladi.

I.Zoxarning fikricha, garchi asl matn va tarjima matni munosabatlari qonun qoidasi bo’yicha amalga oshirilgan bo’lsa ham, transfer sifatida tarjima qilingan so’z yoki matn aslicha qabul qilinmaydi . Ushbu ta’rif tadqiqot ishida transfer tushunchasiga yondashuvimizning asosiy g’oyasini ifoda etadi.

Ishil Gamzening “Cultural Transfer through Translation: Turkish Samples” nomli maqolasida transferni tarjima uchun vosita deb baholaydi va u nafaqat yozma, balki madaniy komponentlarni qamragan og’zaki nutqqa ham tegishli degan fikrini o’z maqolasida ilgari suradi . Shunday ekan, aytish mumkinki,

tarjima faqatgina til bilangina emas balki, madaniyat elementlarini ham transfer qilgan holda amalga oshadi.

S.Kalinin ilmiy tadqiqot ishida transferni lingvomadaniyat nuqtai nazaridan o'rganib, transfer tushunchasiga ta'rif beradi. Unga ko'ra, transfer turli tillar va madaniyat orasidagi informatsion almashinish sifatida tushunilib, ushbu almashinuv uchun ma'lum qoidalar to'plamidan foydalanish tushuniladi va bunda tarjima uchun ham foydalanish mumkinligi ta'kidlanadi. Tadqiqotchining fikricha, axborot uzatish shakllaridan biri sifatida lingvomadaniyat transferining tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayon algoritmi axborot uzatishning strukturaviy tarjima modeli tomonidan tavsiflangan qonunlarga bo'ysunadi . Shuningdek, S.Kalinin o'z tadqiqotining birinchi bo'lim xulosasida transferring ikki shaklini keltiradi. Ular, sinxron transfer va diaxronik transfer bo'lib, bunda ma'lumotni uzatish jarayoni, uni ko'paytirish va tarjima qilish, shuningdek donor tillari o'rtasida ma'lumot almashish va uning jarayonini misol qilib keltiradi .

V.Z.Demyankov madaniyat transferini ikki turga bo'lib o'rganadi. Birinchisi "belgi transferi", ikkinchisini "bilim transferi" deb nomlaydi . Unga ko'ra "belgi transferi" atamasi asosan tarjimashunoslikda qo'llanilib, bunda ma'lum bir belgi o'z shakl va funktsiyalar salohiyatini saqlagan holda bir ma'lumot strukturasidan boshqasiga o'tkazilishi sifatida ta'rif beriladi. "Bilimlar transferi"da esa tajriba, malaka, ko'nikmalar, ma'lumotlar, umuman olganda turli xil informatsiyalar almashinushi sifatida tushuniladi .

Agar matnni ma'lum jamiyat yoki vaziyatga qarashli deb oladigan bo'lsak, va uni boshqa makonga "ko'chirsak", matnning asl nusxasi o'zgaradi. Transfer natijasida tanish belgilar begonalik darajasiga o'zgarib boradi. Matnning jamiyat va til tomonidan qabul qilinish shartlariga ko'ra transfer bo'lgan matnning o'zgarish darajalari belgilanadi. Bu darajalar xoh kichkina yoki katta bo'lmasin, transfer bo'lgan so'z yoki matn asl tilga nisbatan bo'lgan qimmatini yo'qotadi.

"Transfer" atamasini o'rganish jarayonida, uni turli sohalarda qo'llanilishining guvohi bo'lindi. Bular ichida, kiyim yorlig'ida ingliz tilida yozilgan "the color may transfer" jumlesi o'ziga e'tibor tortdi. So'zma-so'z

tarjima qilsak, “rang ko’chishi mumkin”, ya’ni kiyimni yuvish jarayonida rangi boshqa kiyimga o’tishi mumkin degan ma’noni anglatadi. Masalan, kiyim yuvish jarayonida ko’k rangli kiyimning rangi yashil rangli kiyimga yuqib qolsa, yashil rangdagi kiyim boshqa rang tusini oladi. Bu holatdan so’ng, bir qarashda uni yashil deb ham, ko’k deb ham atab bo’lmaydi. Tadqiqot mavzusi bo’lgan madaniyat transferida ham shunga o’xhash hodisani kuzatish mumkin. Bir til madaniyati boshqa bir tilga tarjima qilinganda, madaniyatning “siljishi” sodir bo’ladi. Va madaniyatga oid bo’lgan so’z boshqa bir tilga tarjima qilinganida, boshqa assotsiatsiya bilan qabul qilinadi. Uning asl matndagi ma’nosи tarjima matnida o’z vazifasini o’zgartirishi mumkin.

Demak, “transfer” atamasi o’zaro almashish va o’tkazish jarayoni sifatida ko’rilib, sohalarda birinchi ob’ektdagi yangi g’oya (nazariya, shaxs, madaniyat va h.k.) larning ikkinchi ob’ektga o’tishi va moslashishi tushuniladi. O’rganilgan bir qancha rus ilmiy maqolalarida “transfer” so’zi “perenos”, “obmen” so’zi bilan almashtirilgani kuzatildi. Yuqorida keltirilgan D.V.Lobachyovaning fikriga tayanib, fanda “transfer” tushunchasini unga sinonim bo’lgan so’zlar bilan almashtirilishini yoqlamaymiz. Chunki, “transfer” so’zi boshqa sinonimik so’zlar bilan almashtirilganda, o’ziga salbiy konnotatsiyani ham yuklab olishi mumkin hamda M.Espan va M.Vernerlarning “madaniyat transferi har doim adaptatsiya va assimilitsiyani qamrab oladi ” degan ta’riflariga asoslanib, “transfer” so’zining o’rniga “almashish”, “o’kazish” so’zlari qo’llanilsa, undagi semantik belgilar tushib qoladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarjima va transferning o’xhash va farqli tomonlari nimada?
2. Transfer atamasining ma’nolari qanday?
3. Transferning qanday turlari bor?
4. Tarjimashunoslikda transfer atamasi qanday ma’noda qo’llaniladi?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

- Quyidagi matnni o'qing va ingliz tilidan transfer bo'lgan so'zlarni toping.
- Ingliz tilidan transfer bo'lgan so'zlarni o'zbek tiliga qanday tarjima qildingiz?
- Matnni tarjima qiling.

フランスでは 1週間に 働く 時間が 35時間だそうだ。働く 時間が 短いから、みどりが 多い いなかに 住む 人も ふえて きたと いう。ひまな時間を 使って 生活を 楽しんで いる 人々が おおぜい いる。休みの 日には テーブルや いす、たななどを 作ったり、にわに 花や 木を うえたり、子どもと あそんだり する 時間が 十分に ある。しかし 働く 時間が 短い ことが、国の けいざいを 悪くして いると 言われ始めた。そして とうとう 今年から、会社が 働く 時間を 長く できるように なった。しかし、働く 時間は なかなか 長く ならない。^{ひとびと}人々は ゆっくりと 生活することに なれて しまって いて、もう いそがしい 生活は できなく なって いるからだ。一度 手に した せいかつを する ことは むずかしいのだ。

フランスでは、つまも 働いて いる 場合が 多いそうだ。1人では もらうお金が 少なくて せいかつが たいへんでも 2人なら 70時間 働く ことに なり、十分 せいかつできるのだ。わかい 人は もらう お金が 少しぐらい 少なくとも、働く 時間が 短い ほうが いいと いう 意見の 人が多いらしい。

日本では、1週間に 働く 時間が 40時間だ。フランスと くらべて 1日に 1時間しか ちがわないでは ないかと 思うかも 知れない。しかし、40時間しか 働いて いない 人は ほんとうに 少ない。日本では、※^{ざんぎょう}残業が 多いのだ。また ^{ざんぎょうだい}残業代が なければ 生活が できないと いう 人も 多い。もっと 問題なのは お金を もらわない ^{ざんぎょう}残業や 時間が 長すぎる ^{ざんぎょう}残業だ。働きすぎて 体を こわした 人の 時間を しらべて みたら、おもてに出ない 長い ^{ざんぎょう}残業時間が あつたと いう ことも ある。病気に なるだけでなく 死んで しまう ことも ある。会社に くらべて 働く 人が よわすぎる。まず ^{ざんぎょう}残業の 問題から 何とか しなければ ならない。働く 人には ^{ざんぎょう}残業しなくとも せいかつできる 十分な お金が はらわれるべきだし、もし ^{ざんぎょう}残業したら、その 分の お金も かならず はらわなければ ならない。この ^{ざんぎょう}ような 問題が なくなつて ほんとうに ゆっくりと せいかつできるようになる 日が 早く 来れば いいのだが。

※^{ざんぎょう}残業→overtime work

BADIY ASAR TARJIMASIDA ADAPTATSIYA

Tarjima amalga oshirilishi boshlangan ilk davrlardanoq, tarjima haqidagi barcha nazariy va tanqidiy munozaralar asosan asl ma’no tizimi tarjimasining to‘liqligi va aniqlik darajasi qay darajada bo‘lishi kerakligi masalasi atrofida aylanadi. “Tarjima jarayonida faqat ikki til emas, balki ikki madaniyat, adabiyot qolaversa, bir-biriga teskari voqelik muloqotga kirishadi” kabi g‘oyalar, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima – tillararo hamda madaniyatlararo muloqotning negizi nuqtai nazaridan o‘rganilishiga sabab bo‘lib, fanga yangi tushunchalar, avval atroficha o‘rganilmagan yoki e’tibordan qolgan atamalarning yangi qirralarini ochib, olib borilayotgan tadqiqotlarning asosi fanning yanada samaradorligini oshirishga qaratilmoqda. Shu kabi tushunchalardan biri “adaptatsiya” bo‘lib, fanlararo keng tarqalgan atama bo‘lishiga qaramasdan, XX asrning birinchi yarmida tarjimashunoslik doirasida qilingan tadqiqotlarda olimlar nazaridan chetraqda qolgan.

“Adaptatsiya” termini L.L. Nelyubinning tarjima atamalari lug‘atida quyidagicha izohlanadi:

1. Retseptorga bir xil ta’sir etish uchun tasvirlangan vaziyatni o‘zgartirish orqali asl matn ekvivalentligiga erishish usuli.
2. Adaptatsiya deganda odatda matnga turli xil ishlov berish, ya’ni uning mazmuni va shaklini soddalashtirish, shuningdek, asl holatida o‘qish uchun moslashmagan kitobxonlar tomonidan idrok etish uchun matnni qisqartirish tushuniladi.
3. Matnni o‘qish uchun yetarli darajada tayyor bo‘lмаган kitobxon uchun moslashtirish. Masalan, chet tillarini yangi o‘rganishni boshlaganlar uchun adabiy va badiiy asar matnini “yengillashtirish” .

Ushbu ta’rifning so‘nggi ikki qismi sovet tarjimashunosligi olimlari aksariyatining asarlarida adaptatsiya tushunchasiga nisbatan nuqtai nazarini ifodalaydi. Ya’ni, uncha “jiddiy” o‘rganishga loyiq bo‘lмаган tarjima usuli

sifatida yondashilib, ta’riflarda biroz salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lgani kuzatiladi. Masalan, A.V.Fedorov tarjimani asliga to‘la mos kelishi va to‘liq tarjima qilish kerakligini ta’kidlaydi va qayta ishslash (peredelka), qayta hikoya qilish (pereskaz), qisqartirilgan bayon (sokrashennaya izlojeniya) kabi “adaptatsiya”lardan qochish kerakligini ta’kidlaydi va adaptatsiyani tarjima sifatida qabul qilmaydi. Uning fikrini R.K.Minyar-Beloruchev ham qo‘llab-quvvatlab, tarjima qilishda axborotni to‘la-to‘kis yetkazilishiga e’tibor qaratish lozimligi, adaptatsiya esa axborotni to‘liq emas, balki umumiylazmunini qisqartirib, o‘zgartirib yetkazadi, deb hisoblaydi. Ya.I.Retsker esa o‘zining “Teorii perevoda i perevodcheskoy praktike” asarida “adaptatsiya” atamasidan hattoki foydalanmaydi ham. Uning o‘rniga “pereskaz” (qayta aytib berish) terminidan foydalanib, u ham tarjima haqidagi yuqoridagi fikrlarga ergashadi. Shu davr olimlarining adaptatsiya masalasiga e’tiborsizligini V.V.Demetskaya o‘z ilmiy asarlarida sovet klassik tarjimashunosligida adaptatsiya tushunchasiga go‘yo “o‘gay qiz”ga nisbatan munosabat bo‘lganini ta’kidlaydi .

O‘zbek sovet tarjimashunosligida ham adaptatsiya masalasi alohida maqola, monografiyalar bilan yoritilmagan. G‘.Salomovning “Tarjima nazariyasi asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida “moslashtirish” so‘zi bir necha bor uchraydi, biroq mavzuda “uslubiy moslashtirish” haqida so‘z borib, “uslubiy moslashtirish yoki taqlidda muayyan janr, ijtimoiy muhit, davr va boshqalarga xos bo‘lgan naql yoki nutq uslubiga taqlid, o‘xshatma yoinki monandlik tarzi tushuniladi” deb, moslashtirish deganda tarjimonning manba asar avtoriga taqlidi deb bayon qilingan. 1980 yilda nashr etilgan “Tarjima san’ati” nomli maqolalar to‘plamida Yo.Ishoqovning “Zullisonaynlik va tarjima” nomli maqolasida “adaptatsiya” termini bir marotaba uchraydi. Unda “bir til asosida shakllangan tasvir uslubini ikkinchi bir til qonuniyatlari asosida qayta tahrir qilish, unga sayqal berish protsessi amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, uslubda milliy adaptatsiya hodisasi ro‘y beradi” deb uslubga ta’rif berilgan bo‘lsa-da, biroq “adaptatsiya” tushunchasi pragmatik nuqtai nazardan yoritilgani ko‘rinadi.

Adaptatsiya masalasiga V.N.Komissarov o‘z asarida jiddiy yondashib, adaptatsiyani ikkiga: uslubiy (stilistik) adaptatsiya hamda pragmatik adaptatsiyaga bo‘lib ko‘rib chiqadi. Pragmatik adaptatsiya V.N.Komissarovning ta’rificha, “tarjima retseptori uchun ta’sir qilib kommunikativ effektni saqlash maqsadida amalga oshiriladigan tarjima usuli”dir . N.Garbovskiy ham “tarjima matnida asl matnga teng kommunikativ ta’sirga erishishni maqsad qilgan pragmatik shartli o‘zgarishlarga” adaptatsiya deb ta’rif beradi. Va uning fikricha, adaptatsiyaga ehtiyojkorlik bilan murojaat qilish darkor. Zero, ushbu usulning yaxshi tomoni — tarjima matni kitobxoniga asl matn ma’nolarini osonlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomoni esa — madaniyatlararo farqlarni kamaytirib, “hamma yerda shunday ekan” kabi yolg‘on tasavvur uyg‘otishi ehtimoli mavjud . Ko‘rinib turibdiki, XX asrning ikkinchi yarmidan keyin rus tarjimashunoslik maktabining ham adaptatsiya masalasiga bo‘lgan qarashi tarjimada kommunikativ effektni saqlab qolish nuqtai nazaridan biroz “yumshagan”.

Frantsuz tarjimashunoslik maktabida adaptatsiyaga nisbatan qarash biroz “tabiiy”. J.P. Vine va J. Darbelne adaptatsiyani tarjima texnikasi deb qabul qilib, “asl matn yuborgan xabarda nazarda tutilgan vaziyat tarjima matni madaniyatiga begona bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Bunday hollarda tarjimon ekvivalent deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan yangi vaziyatni yaratishlari lozim bo‘ladi” , deb ta’rif berishadi. Ya’ni, adaptatsiya – bu madaniy nomutanosibliklar mavjud bo‘lgan hamma joyda ekvivalentlikka erishish uchun foydalaniladigan protsedura. “Terminologie de la Traduction: Translation Terminology” nomli, bir kitobda to‘rt tilda izohlangan tarjimashunoslik terminologiyasi kitobida adaptatsiyaga “maqsadli auditoriya talablarini qondirish uchun asl matn tilidagi ijtimoiy-madaniy realiyalarni tarjima tili madaniyatiga xos bo‘lgan realiya bilan almashtirish” deb ta’rif berilgan.

Tarjimashunoslik tarixida adaptatsiya tushunchasiga nisbatan noaniqliklar bo‘lgani va olimlarning ushbu tushunchaga bo‘lgan salbiy munosabatlarini ta’kidlab, Jorj Bastin adaptatsiyani to‘rt xil ma’noda ko‘rib chiqishni taklif qiladi:

1. Tarjima usuli (Translation strategy)

2. Janr (Genre)
3. Metatil (Metalanguage)
4. Sodiqlik (Faithfulness)

J.Bastin adaptatsiyaning tarjima usuli vazifasi sifatida J.-P.Vine va J.Darbelnening yuqorida keltirgan ta’rifini asos qilib ob’ektiv yo‘l sifatida tushuntiradi. Janr vazifasiga esa drama, reklama, subtitr va bolalar adabiyoti kabilar tarjimasini misol keltiradi. Didaktik materiallar tarjimasi uchun tilning metatillik xarakteriga egaligi qo‘l kelsa, va nihoyat tarjima matnining asliga “sodiqligi” yoki asl matn mazmuni yetkazilishi nuqtai nazaridan adaptatsiya o‘rganiladi.

J.Bastin adaptatsiyani matnlar asosida o‘rganib, ularni taqqoslab, adaptatsiyani amalga oshish yo‘llari (usullari), tarjimonning ushbu usulga qaror qilish shartlari, uning chegaralari ro‘yxatini ishlab chiqdi. Ularni quyidagicha tasnifladi:

asl nusxanining transkriptsiyasi: matnning bir qismini so‘zma-so‘z takrorlash;

tushirib qoldirish: matnning bir qismini qisqartirish yoki olib tashlash;

kengaytirish: tarjima matnining asosiy qismiga yoki iqtibos, izohlarda asl matn ma’nosiga qo’shimcha qilish (eksplikatsiya);

ekzotizatsiya: asl matndagi ekzotizm jargonlari, sheva, bema’ni so‘zlar va boshqalarni tarjima tilida qo‘pol ekvivalentlar bilan almashtirish (ba’zan kursiv bilan yoki tagiga chizib beriladi);

zamonaviylashtirish: eskirgan yoki tushunarsiz so‘zlarni zamonaviy ekvivalentlar bilan almashtirish;

situatsion yoki madaniy adekvatlik: asl matnda ishlatalgan so‘zni tarjima o‘quvchisiga tanish yoki madaniy kontekstga almashtirish;

yaratish: asl nusxanining asosiy xabari, g‘oyasi yoki funktsiyasini saqlaydigan qayta matn yaratish .

Albatta tarjimonning adaptatsiyani tanlash uchun sabablar bo‘lib, ular orqali tarjimon yuqoridagi adaptatsiya usullaridan birini tanlaydi. V.Sdobnikov va

O.Petrovalar tarjimada adaptatsiyaning namoyon bo‘lishi transformatsiyaning quyidagi usullari sabab bo‘lishini ko‘rsatib o‘tishadi:

- eksplikatsiya;
- tushirib qoldirish (opushenie);
- generalizatsiya;
- konkretizatsiya .

Mazkur tadqiqot ishida yuqorida V.Sdobnikov, O.Petrovalar ko‘rsatib o‘tgan adaptatsiya usullariga tayanib misollar tahlil qilindi. Jumladan, asl matndagi til birligiga qo‘s Shimcha ravishda izohlar berish adaptatsiyaning eksplikatsiya usulida qo‘llaniladi. Uni asosan shaharlar, prefekturalar, joy nomlarini yoniga izoh sifatida tushuntirish uchun qo‘llaniladi. Tahlil qilayotgan “Qalb” asari va uni tarjimalarida uchragan ba’zi misollardan 寺 [tera] “ibodatxona” so‘zi bo‘lib, tarjima matnida “budda ibodatxonasi” deb eksplikatsiya usulidan foydalanib tarjima qilingan. Chunki, Yaponiyada sintoizmga oid ibodatxona ham mavjud bo‘lib, ularni farqlash tarjima matnida muhim. 琴 [koto] realiyasi ham “koto musiqa asbobi” deb, 上野 [ueno] joy nomi “Ueno bog‘i” sifatida izohlanib tarjima qilingan. Demak, adaptatsiyaning eksplikatsiya usuli, xususan, milliy xos so‘zlarni tarjima matni o‘quvchisiga yanada tushunarliroq ifoda qilish uchun qo‘llaniladi.

Ba’zi so‘z, realiyalar asliyat tili uchun ma’no-mazmun anglatsa-da, tarjima tilida bunday tushuncha mavjud emasligi hisobidan tarjima tiliga o‘girilganda matnning kommunikativ effekti yo‘qolishi mumkin. Bunday hollarda adaptatsiyaning tushirib qoldirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot uchun manba sifatida tanlangan asardan misol qilib keltiradigan bo‘lsak, ayolning turmush o‘rtog‘ini 「あなた、あなた」 という奥さんの声が二度聞こえた。[anata, anata] to iu okusanno koe ga nido kikoeta] (so‘zma-so‘z tarjima: “sen, sen” degan ayolining ovozi ikki marta eshitildi.”) deb murojaat qilib chaqirishini o‘zbek tiliga qilingan tarjimada “ayoli uni ikki marta chaqirdi” deb berilgan. Chunki, あなた [anata] o‘zbek tilida “sen” degan ma’noni anglatib,

bunday murojaat usuli o‘zbek millati madaniyatida mavjud emasligi, erga nisbatan “sen” deb murojaat qilinmasligi yuzasidan, tarjimada kommunikativ effektni saqlab qolish maqsadida tarjimon asl matndagi 「あなた、あなた」 [anata, anata] murojaat so‘zini tushirib, qahramonning ikki marta chaqirilganini bergen.

Adaptatsiyaning keyingi generalizatsiya usuli bir ma’noli so‘zni umumiyoq so‘zga almashtirish bo‘lib, manba asardan misol sifatida うちへ [uchie] so‘zini tarjima matniga "qishloqqa" deb o‘girilganida, 不道徳 [fudoutoku] (axloqsizlik) so‘zi kontekst ma’nosidan kelib chiqqan holda “gunoh” sifatida berilganini kuzatiladi.

Asliyatdagi so‘z, birikmani tarjima matniga aniqroq, lo‘nda qilib berish adaptatsiyaning konkretizatsiya usuliga xos. Misol sifatida しゃくやく場だけのそばにある古びた縁台 [shakuyaku ba dake no sobani aru furubita endai] so‘zini bersak, o‘zbek tiliga “piongul dalasining yonginasidagi eskirgan o‘rindiq” jumlesi tarjima matnida konkretizatsiya shaklida “uvat chetidagi eski o‘rindiq” sifatida berilganda tarjima matni madaniyat transferi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi misollar V.Komissarov tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan adaptatsiya usullari bo‘lib, tadqiqot davomida tarjima matni madaniyat transferi sifatida namoyon bo‘lishida yana ikkita usulning ham o‘rni mavjud ekanligi aniqlandi. Bular, almashtirish (zamena) hamda qo‘shish (dobavlenie) usullaridir.

Tahlilga tortilgan “Qalb” asarida uchragan misollardan birini namuna sifatida ko‘rsatadigan bo‘lsak, matnda 森や田の中に[mori ya ta no nakani] jumlesi bilan qishloq tasvirlanadi. Asliyatda qishloq tasviri “dala (asosan guruch dalasi nazarda tutiladi) va o‘rmon ichida” misolida berilgan bo‘lsa, tarjima matnida “dala va tog‘lar etagida” deb berilgan. Ya’ni, o‘zbek kitobxonida o‘rmon tasavvuri boy emasligi hamda qishloq tasavvuri dala va tog‘, qir-adirlar bilan bog‘liqligi yuzasidan tarjimon bu yerda almashtirish usulidan foydalangan.

Tahlillar natijasida qo‘shish (dobavlenie) usuli ham tarjima matnida madaniyatning transfer bo‘lishida sabab bo‘lgani kuzatildi. Misol uchun tarjima

matnida mavjud bo‘lmagan, biroq tarjima matnida asliyatdagи kommunikativ ta’sirni saqlab qolish uchun “bolam”, “ko‘zday qo‘shnilar”, “balli” kabi o‘zbek milliy koloritiga oid so‘zlar qo‘shilganligi tarjima matnini madaniyat transferi sifatida namoyon qiladi.

Sanab o‘tilgan barcha adaptatsiya usullari matnning umumiy mazmuniga o‘zgartirish kiritmaydi. Bunda matn mazmuni saqlanib, tarkibidagi ma’lum elementlari o‘zgargan holda, tarjima matni o‘quvchilari uchun qulay va tushunarli shaklga ega bo‘ladi .

Demak, bir tildan boshqasiga tarjima qilganda, ikki til o‘rtasidagi jiddiy leksik-grammatik farqlar bilan birgalikda, o‘sha tillarda so‘zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozosi bilan tug‘ilgan tasavvur, tushuncha, e’tiqodlar o‘rtasidagi katta tafovutlarga duch kelinishi kuzatildi. Tarjimon ushbu so‘zлarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilganda, madaniyatga xos bo‘lgan so‘zlarning ekvivalenti asl matndagi so‘z ma’nosini berkitishi yoki umuman tushirib qoldirishi mumkin. Chunki, turli til, madaniyatlar o‘zaro aloqaga kirishganda ma’nolar assimitriyasi yuzaga kelib bo‘shliq ko‘zga tashlanadi. Demak “tarjima bu til kodining oddiy o‘zgarishi emas, balki matnni boshqa madaniyat prizmasi orqali uni idrok etish uchun moslashtirish” ekanligini hisobga olish zarur. N.A.Fenenko lingvomadaniyat nuqtai nazaridan adaptatsiyani o‘rganib, asl matnni chet tilida qabul qiluvchi asliyat g‘oyasini to‘liq tushunishi uchun boshqa lingvomadaniy makonga ma’lum usullar yordamida moslashtirish deb tushuntirsa, Komissarovning ta’rifiga ko‘ra, adaptatsiya - bu "asl mazmuni tarjima matnida boshqa shaklda ifodalangan, tillararo muloqotning vazifasi ". Ya’ni tarjima matni asliyatning ekvivalentiga erishishi uchun berilgan so‘zni boshqa shakldagi ifodasıdir.

Shunday ekan, adaptatsiya nafaqat tillar assimetriyasi, balki madaniyatlar assimetriyasida ham qo‘llaniladi. Shu jihatdan olib qaralsa, adaptatsiya matnning ma’no tizimini saqlab qolish, shunga o‘xshash kommunikativ ta’sirga erishish uchun aynan zarur bo‘lib chiqadi. Tarjimada pragmatik adaptatsiyani e’tiborga olmasdan tarjima qilish esa ba’zida tarjima matni o‘quvchisida asl matn muallifi

nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Tarjimon tarjimada nimani saqlash, nimani e'tiborga olmaslik yoki o'zgartirishi mumkinligi haqida ish jarayonida tarjimaning asosiy tamoyillari asosida qaror qabul qiladi. Agar u asliyatning butunligini, lisoniy shaklini takrorlamoqchi bo'lsa, metaforani metafora bilan, epitetni esa epitet bilan tarjima qilishi lozim. Shunday ekan, tarjimada adaptatsiyani e'tiborga olmasdan tarjima qilishlik ba'zida tarjima matni o'quvchisida asl matn muallifi nazarda tutmagan mutlaqo boshqa assotsiatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Adaptatsiyani qo'llash sabablari til birliklari jihatidan emas, balki, asosan asliyat matni va tarjima matni madaniyatlarining turliligi, o'quvchiga asliyat matni g'oyasini yorqinroq yetkazib berish uchun qo'llaniladi. Madaniy assimetriya hodisasini Yu.Nayda batafsil bayon qilgan bo'lib, uni tushuntirishdan avval, uslubiy va dinamik ekvivalentlikni tushuntirib o'tadi . Uslubiy ekvivalentlik asliyat matni va tarjimaning mazmun va ifoda doirasining mos kelishiga asoslanadi. Dinamik ekvivalentlik esa, teng ta'sir printsipiga ya'ni asl nusxa va tarjima o'quvchilari reaktsiyalarining mos kelishiga asoslanadi. Dinamik ekvivalentlikka adaptatsiya orqali erishiladi, ya'ni, tarjimon tomonidan retseptor (tarjima matni o'quvchisi) uchun tushunarsiz deb baholangan predmetli holatni tarjima tili madaniyatiga mos keladigan predmetli holatga almashtirish. Olimning fikricha, gohida asar o'quvchisi oladigan reaktsiyani saqlab qolish uchun matnni har turdag'i, shu jumladan, radikal o'zgarishlarga duchor qilish kerak. Chunki, ba'zi o'rinnarda matnni saqlab qolib asliyat o'quvchisi erishgan ta'sirga yaqinroq borishning iloji ham yo'q. Albatta bunda tarjimaning maqsadiga qarab turli hollarda u yoki bu usullar ustunlik qilishi mumkin. J.P.Vine va J.Darbelnening fikriga ko'ra, tarjimada adaptatsiyadan voz kechish nafaqat tuzilishga, balki g'oyalar, fikrlar va ularning ta'sir kuchiga ham ta'sir qilishi mumkin .

Tarjimaning adaptatsiya usuli orqali tarjimon dinamik ekvivalentlik tamoyillariga asoslangan holda asliyat matnidagi tarjima o'quvchisi uchun noaniq, tushunarsiz bo'lgan jihatlarini bartaraf qilishga harakat qiladi. Ya'ni bunda matnga kerakli qo'shimchalar qo'shilishi yoki so'zlar almashtirilishi hisobiga

qabul qiluvchi tomonidan matnni idrok etishiga erishish ko‘zda tutiladi. Fikrimizni yanada kengroq bayon qiladigan bo‘lsak, adaptatsiyadan tarjima qilingan matn qabul qiluvchilari asliyat matnida ifoda etilgan yot bo‘lgan voqelik hodisalarini tushuna olmasligidan emas, balki, asliyat va tarjima tilida til manzarasi turli ekanligi yuzasidan, tushuncha va predmetlar haqidagi assotsiatsiyalarning boshqacha ekanligi nuqtai nazaridan foydalaniadi. Demak, matn adaptatsiyasining asosiy mezoni uning pragmatik yo‘nalishidir. Olimlarning fikrlaridan xulosa qilib aytish mumkinki, tarjima matni tarjima qilingan til jamiyati tomonidan yengil qabul qilinsa, tarjima matni o‘quvchisi ham asliyat matni o‘quvchisi olgan ta’sirni ola olsa, matn tarjimasi sifatli deb baholanadi. Buning uchun albatta tarjimada matn butunligidan ko‘ra, pragmatik adaptatsiyani qo‘llash o‘rinlidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Adaptatsiyaga ta’rif bering.
2. Adaptatsiyani nechta turini bilasiz?
3. Adaptatsiyaning generalizatsiya usuliga misol keltiring.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Quyida berilgan Natsume Sosekining 「こころ」 asaridan parchani tarjima qiling.
2. Qaysi holatlarda adaptatsiyani qo‘lladingiz? Nimaga?

上 先生と私

一

私わたくしはその人を常に先生と呼んでいた。だからここでもただ先生と書くだけで本名は打ち明けない。これは世間を憚はばかる遠慮というよりも、その方が私にとって自然だからである。私はその人の記憶を呼び起すごとに、すぐ「先生」といいたくなる。筆を執とっても心持は

同じ事である。よそよそしい頭文字かしらもじなどはとても使う気にならない。

私が先生と知り合いになったのは鎌倉かまくらである。その時私はまだ若々しい書生であった。暑中休暇を利用して海水浴に行った友達からぜひ来いという端書はがきを受け取ったので、私は多少の金を工面くめんして、出掛ける事にした。私は金の工面に二に、三日さんちを費やした。ところが私が鎌倉に着いて三日と経たたないうちに、私を呼び寄せた友達は、急に国元から帰れという電報を受け取った。電報には母が病気だからと断ってあつたけれども友達はそれを信じなかつた。友達はかねてから国元にいる親たちに勧すすまない結婚を強しいられていた。彼は現代の習慣からいうと結婚するにはあまり年が若過ぎた。それに肝心かんじんの当人が気に入らなかつた。それで夏休みに当然帰るべきところを、わざと避けて東京の近くで遊んでいたのである。彼は電報を私に見せてどうしようと相談をした。私にはどうしていいか分らなかつた。けれども実際彼の母が病氣であるとすれば彼は固もとより帰るべきはずであった。それで彼はどうとう帰る事になった。せっかく來た私は一人取り残された。

学校の授業が始まるにはまだ大分だいぶ日数ひかずがあるので鎌倉におつてもよし、帰つてもよいという境遇にいた私は、当分元の宿に留とまる覚悟をした。友達は中国のある資産家の息子むすこで金に不自由のない男であったけれども、学校が学校なのと年が年なので、生活の程度は私とそう変りもしなかつた。したがつて一人ひとりぼっちになつた私は別に恰好かつこうな宿を探す面倒ももたなかつたのである。

宿は鎌倉でも辺鄙へんぴな方角にあつた。玉突たまつきだのアイスクリームだのというハイカラなものには長い瞬なわてを一つ越さなければ手が届かなかつた。車で行つても二十銭は取られた。けれども個人の別

荘はそこそこにいくつでも建てられていた。それに海へはごく近いので海水浴をやるには至極便利な地位を占めていた。

私は毎日海へはいりに出掛けた。古い燻くすぶり返った藁葺わらぶきの間あいだを通り抜けて磯いそへ下りると、この辺へんにこれほどの都會人種が住んでいるかと思うほど、避暑に来た男や女で砂の上が動いていた。ある時は海の中が銭湯せんとうのように黒い頭でごちゃごちゃしている事もあった。その中に知った人を一人ももたない私も、こういう賑にぎやかな景色の中に裏つつまれて、砂の上に寝ねそべってみたり、膝頭ひざがしらを波に打たしてそこいらを跳はね廻まわるのは愉快であった。

私は実に先生をこの雑沓ざつとうの間あいだに見付け出したのである。その時海岸には掛茶屋かけぢややが二軒あった。私はふとした機会はずみからその一軒の方に行き慣なれていた。長谷辺はせへんに大きな別荘を構えている人と違って、各自めいめいに専有の着換場きがえばを拵こしらえていないここいらの避暑客には、ぜひともこうした共同着換所といった風ふうなものが必要なのであった。彼らはここで茶を飲み、ここで休息する外ほかに、ここで海水着を洗濯させたり、ここで鹹しおはゆい身体からだを清めたり、ここへ帽子や傘かさを預けたりするのである。海水着を持たない私にも持物を盗まれる恐れはあったので、私は海へはいるたびにその茶屋へ一切いっさいを脱ぬぎ棄てる事にしていた。

TARJIMANING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

XX asrning oxirlarida olimlarning til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga bo‘lgan qiziqishi yangi – lingvomadaniyatshunoslik fanining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu fanning diqqat mavzusi til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, ularning bir-biriga bog‘liqligini o‘rganish bo‘lib, inson hayotidagi madaniyat belgilarining tilda aks etishini o‘rganadi. “Til nafaqat muloqot va dunyoni bilish quroli, balki, millat madaniyatining kaliti(kodi)” sifatida olimlarni qiziqtira boshladi. Va til ham, madaniyat ham bir-birisiz mavjud emas degan g‘oya tadqiqotchilarni lingvomadaniyatshunoslik fani markazida jamladi.

V.fon Gumboldtning “millatimning tili chegarasi mening dunyoqarashimning chegarasini belgilaydi” degan jumlesi lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy g‘oyasini tashkil qiladi. Ushbu fan tarmog‘i ”tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining tutashgan yerida paydo bo‘lgan bo‘lib, tilda o‘rnashib qolgan va unda aks etgan xalq madaniyatini namoyon bo‘lishini o‘rganadi” . Ya’ni, til o‘z birliklarida madaniyat belgilarini saqlashi va til orqali uni translyatsiyasi usullarini o‘rganishdan iboratdir. V.fon Gumboldtning fikricha, til – inson va obyektiv dunyo o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi va insonning atrofdagi narsalarga munosabatini belgilaydi, zero uning voqelikni anglashi lisoniy g‘oyalarga bog‘liqdir. Keyinchalik uning til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi g‘oyasi til va madaniyatning o‘zaro ta’siri masalasi tadqiqotlariga ham turtki bo‘ldi. V.fon Gumboldt o‘z tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keldi, ya’ni turli xil tillar faqatgina narsalarning turli nomlanishi emas, balki til o‘zining narsalar haqidagi qarashlar, tushunchalari orqali bizga har xil fikrlash va idrok qilishga turtki bo‘ladi. V.fon Gumboldtning ilgari surgan asosiy nazariyalari quyidagilardan iborat: a) tilda moddiy va ma’naviy madaniyat mujassamlashadi; b) har bir millatning madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, uning xarakteri dunyoni qanday ko‘rishi asosida tilda o‘z ifodasini

topadi; v) til har bir millat uchun o‘ziga xos ichki shaklga ega; g) tilning ichki shakli – uning madaniyati aksi bo‘lib, "millatning ruhiy energiyasi birlashuv" i mahsuli deb ta’riflaydi . V.fon Gumboldtning nazariyasи ko‘pgina olimlarning tilshunoslik faniga boshqacha yondashishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, amerikalik tilshunoslар Edvard Sepir va Benjamin Li Uorf tomonidan ilgari surilgan "til nisbiyligi" gipotezasi zaminida odamlar ona tili prizmasi orqali dunyoni xar xil ko‘radi degan g‘oya yotadi. Har bir til o‘sha tilda so‘zlashadigan odamlarning ongini belgilaydi, har bir millat dunyoni o‘z "til manzarasi"dan kelib mushohada qiladi degan fikrni ilgari surishgan. E.Sepir shunday deydi: "Til madaniyatdan tashqarida ya’ni bizning hayot tarzimizni ifodalovchi amaliy ko‘nikma va g‘oyalardan tashqarida mavjud emas ." Ya’ni inson biror narsani til bilan ifodalar ekan, unda uning dunyoqarashi, milliy madaniyati ham namoyon bo‘lar ekan. Shu bilan birga insonning qabul qilish, anglash, tushunish jarayonida ham tilning o‘rni haqida gapirish muhim ahamiyat kasb etadi. Keyinchalik lingvomadaniyatshunoslар fanini rivojlanishida E.Sepir, X.Glins, L.Vaysgerber, B.L.Uorf, G.Brutyan, D.Xaymz, V.N.Teliya, A.A.Potebnya, V.V.Vorobev, A.Vejbitskaya, V.A.Maslova kabi olimlarning hissaları katta.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarini tilda aks etishini o‘rganish lingvomadaniyatshunoslарning asosiy maqsadidir. Til va madaniyat ushbu yo‘nalishning obyekti hisoblanib, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani ifoda etuvchi til birliklari hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslарda madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq qilinar ekan, bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. Jumladan, ramz, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, realiyalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiket kabilar lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslарning asosiy vazifalari hisoblanadi. V.N.Teliya

lingvomadaniyatshunoslikni jonli milliy tilda moddiy madaniyat va mentalitetning mujassamlashuvini o‘rganadigan fan sifatida ta’riflaydi . Ushbu tadqiqotda V.V.Vorobevaning lingvomadaniyatshunoslik uchun bergen ta’rifiga yondashildi. Unga ko‘ra, lingvomadaniyatshunoslik fani tanlangan madaniy qadriyatlarning majmuini, insonning nutqni yetkazish va idrok etishning kommunikativ jarayonlarini, lisoniy shaxs tajribasi hamda milliy mentalitetni o‘rganadi . Tilda namoyon bo‘lgan va unda mustahkamlangan madaniy ifodalar bilan shug‘ullanadigan yo‘nalish sifatida lingvomadaniyatshunoslik fani tilni nafaqat aloqa va bilish vositasi, balki millatning madaniy kodi sifatida o‘rganadigan sotsiolingvistika va etnolingvistika bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ulardan farqli ravishda lingvomadaniyatshunoslik fani jonli aloqa jarayonida qo‘llaniladigan lingvistik iboralar bilan inson mentaliteti bog‘liqligini o‘rganadi .

Yaponiyadagi til va tafakkur masalalari sharqshunos olim V.M.Alpatov asarlarida batafsil bayon qilingan . XIX asr oxirlaridan yapon tilshunosligi tadqiqotlarining aksariyati yevropa tilshunosligi mакtabiga asoslanib rivojlanib kelmoqda. Yapon tilshunoslari til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqlik masalalarini kognitiv tilshunoslikning bir qismi sifatida o‘rganadilar . Darhaqiqat, lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslikni “til-inson”, “dunyo manzarasi”, “konsept” kabi tushunchalar birlashtirib tursa-da, “ong” va “madaniyat” tushunchalari bu ikki tilshunoslik yo‘nalishini ajratib turadi.

O‘zbek tilshunosligi, tarjimashunosligida lingvomadaniyatshunoslik sohasida qator ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda, maqolalar nashr etilmoqda. Bular qatoriga G‘.Salomov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Usmonova, D.Xudoyberanova, R.Shirinova, X.Hamidov, N.Xodjayeva, N.Turapova, U.Yo‘ldoshev kabi olim va tadqiqotchilarining maqola va ilmiy asarlarini misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik, xususan, antropotsentrik paradigmaning mohiyati chuqur yoritilgan bo‘lib, D.Xudoyberanova o‘zbek

tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholaydi . Olim bu asarda lingvomadaniyatshunoslik fanining obyekti bo‘lgan madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi, aqliy ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati) demakdir” .

Lingvomadaniyatshunoslik fani struktur tilshunoslikning nazaridan chetda qolgan til subyektiga e’tiborini qaratib, til va madaniyat tadqiqot markaziga aylandi. Zero, “tilning mohiyatida psixiklik (ruhiy jihat) mavjudligi unda estetiklik (go‘zallik, badiiy-ifodaviylik)ning mavjudligini inkor etmaydi. Yoki tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uning o‘ziga xos tizimli tuzilma ekanligini shubha ostida qoldirmaydi. Shuning uchun tilning mohiyatini ochishda mazkur xususiyatlarning barchasi hisobga olinishi lozim” . A.A.Abduaazizovning “Tilshunoslik nazariyasiga kirish” kitobida lingvomadaniyatshunoslikka quyidagicha izoh beriladi: “lingvokulturologiya – til va madaniyat, o‘zaro madaniy masalalarini ilmiy tadqiq etadi. Bu soha faqat madaniyat bilan emas, balki u orqali turli urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi” . D.Xudoyberanova o‘z ilmiy asarida lingvomadaniyatshunoslikka berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda shunday deydi: “til va madaniyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni saqlash, avloddan avlodga uzatish, madaniyatlararo muloqotni yuzaga keltirish va uni rivojlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan noyob hodisadir. Bunda til ham madaniyat mahsuli, ham uning mavjudligining asosiy sharti sifatida madaniyat qiyofasini belgilovchi, uning vorisiyligini ta’minlovchi omil vazifasini bajaradi” .

Umumlashtirib aytganda, millat madaniyatining moddiy va ma’naviy belgilari inson ongida va tilida aks etadi. Til esa o‘z navbatida og‘zaki nutqda, matnlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Demak, matn va tarjimalar millat madaniyatini o‘rganish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Til matn va tarjimalarda aks etar ekan, ular millat madaniyatini o'rganish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bir tildan boshqasiga tarjima qilganda, ikki til o'rtasidagi jiddiy leksik-grammatik farqlar bilan birgalikda, o'sha tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozosi bilan tug'ilgan tasavvur, tushuncha, e'tiqodlar o'rtasidagi katta tafovutlarga duch kelinishi kuzatiladi. Zero, turli til, madaniyatlar o'zaro aloqaga kirishganda ma'nolar assimitriyasi yuzaga kelib bo'shliq ko'zga tashlanadi. Tarjima deganda faqatgina bir tildan boshqasiga ko'chirish emas, balki madaniyatlar to'qnashuvini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik darkor. Lingvomadaniyatshunoslik ana shunday tilda aks etgan madaniyatga oid tushunchalarni o'rganishga yordam beradi.

Badiiy matn o'zida madaniy belgilarni saqlashi, ifoda qilishi nuqtayi nazaridan shuni aytish mumkinki, badiiy matn lingvomadaniyatshunoslikning tadqiq obyektlaridan hisoblanadi. V.A.Maslova matn haqida quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvomadaniyatshunoslik esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi" .

V.A.Maslova badiiy matnni lingvomadaniyatshunoslikning obyekti sifatida uch shaklini ko'rsatadi:

- 1) milliy madaniyat prizmasidan kelib chiqqan holda dunyo haqidagi ma'lumotlarning tashuvchisi va manbai sifatida (matn - madaniyat yig'indisi)
- 2) estetik ma'lumot tashuvchisi sifatida (matn - san'at asari, milliy madaniyat asosi)
- 3) til ma'lumoti manbai sifatida (matn - bu til birliklarining sifatini o'rganish uchun manba, milliy madaniyatni qayd qilish shakli) .

Demak, badiiy matnni yaratish ham, uni idrok qilish, uning tarjimasi ham estetik madaniy faoliyat sirasiga kirar ekan. Lingvomadaniyatshunoslik til hamda madaniyatning doimiy o'zaro ta'sirini o'rganar ekan, asosan ramziy, obrazli, metaforik ma'noga ega bo'lgan va inson ongi faoliyati natijalarini

umumlashtirgan madaniyatga oid til birliklarini tanlaydi. Madaniyatning tilda namoyon bo‘lishini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan ushbu yo‘nalish nafaqat aloqa va bilish vositasi sifatida emas, balki millatning madaniy kodi sifatida ham o‘rganadi.

Ma’lumki, inson ongida madaniyatga oid konseptlarning shakllanishida xalq madaniyati, urf-odati, dunyoqarashi kabi omillar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli turli xalqlarda madaniy konseptlar bir-biridan farqlanib, ular o‘zga madaniyat egalari tomonidan har xil idrok etilishi mumkin. G.Odilova retseptor bilan matn muallifining tasavvuri har doim ham mos tushmasligi haqida o‘rinli misol keltiradi. Masalan, “daraxt” deganda o‘zbek kitobxoni ko‘z oldida asosan mevali daraxt gavdalansa, rus o‘quvchisida esa oq qayin, eman daraxtini, yaponlar sakura, issiq o‘lkalarda yashovchi xalqlar esa palma, banan kabi sitrus mevalari daraxtlarini ko‘z oldiga keltiradi . Anglashiladiki, kishilarda bir predmetga oid tasavvurlarning turlicha bo‘lishiga ular yashab turgan makon, atrof-muhit kabilalar ham ta’sir ko‘rsatadi.

A.D.Shveyser ham e’tiborini mana shu masalaga qaratib shunday deydi: “Bir matnni turli xil madaniyat, turli kommunikativ vaziyat ishtirokchilari har hil qabul qiladilar. Bunda xulq-atvor me’yorlariga asoslangan dastlabki bilimlar katta rol o‘ynaydi .” Bu jihatdan yondashilsa, “qabul qiluvchi madaniyat” asl matndagi madaniy ma’lumotlarni, stereotiplarni oddiy so‘zlar kabi qabul qilishi mumkin. Yoki aksincha, asl matnda berilgan oddiy so‘z tarjimada madaniy konsept darajasiga ko‘tarilishi ham mumkin. Shu sababli tarjima asarlari tahlilida tarjima matniga ko‘chgan so‘zlarning millat tasavvurlariga asoslangan assotsiativ ma’nolariga ham e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Shu o‘rinda M.Baxtin yozgan edi: “Biz begona madaniyatga ular o‘z-o‘ziga bermagan yangi savollarni qo‘yamiz va ularga javob izlaymiz. Shunda begona madaniyat bizga yangi ma’noga to‘la qirralarini ochib beradi” . Bu madaniyatlararo muloqot uchun xos xususiyat bo‘lib, qabul qiluvchi madaniyat begona madaniyat elementlarini o‘z dunyoqarashidan, olamga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib kashf qiladi.

“Mantiqiy ildizlarga ega lisoniy birlik – o‘xshatish yoki komparativ troplar millatning dunyoqarashini, idrok intizomini aks ettiruvchi muhim manbadir. Milliy idrok intizomi esa, o‘z navbatida, milliy til orqaligina anglanishi mumkin. Masalan, o‘zbeklardagi kichik narsa yoki joyga nisbatan qo‘llanuvchi ushoqdek yoki angishvonadek o‘xshatishlari milliy idrok intizomini o‘zida yaqqol namoyon qiladi.”

Ter-Minasovaning fikriga ko‘ra, “tildagi tafovutlar bir tushunchani ifoda etish shakllarining ko‘p yoki yetishmasligi sezilganida namoyon bo‘ladi” . Turli tillarda gaplashadigan odamlar atrofdagi olamni turlicha "ko‘radilar". Ushbu "ko‘rish"dagi farqlar bilim va tushuncha, tasavvurlarning turliligi, ma’lum bir so‘zni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki obrazli ishlatilishida kuzatildi. V.A.Maslova asarlarni boshqa tilga tarjima qilganda “o‘quvchining matnni talqin qilishi asar muallifi nazarda tutgan ta’rifga mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi mumkin, chunki ular nafaqat boshqa-boshqa shaxslar yoki turli xil konseptual tizimlarga egalar, balki madaniy kontekstlari ham turlichadir”, deb fikr bildirgan. Demak, yangi madaniy kontekstga ko‘chgan matn, asliyati bilan solishtirganda yangi ma’nolar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi va o‘zi bilan yangi assotsiatsiyani ergashtiradi.

Lingvomadaniyatshunoslikda assotsiatsiya bilan bog‘liq tadqiqotlar juda dolzarb hisoblanadi. Umuman olganda inson ongidagi fikr harakati, assotsiatsiya hodisasini o‘rganish avvaldan fiziologiya, falsafa, psixologiya kabi ko‘plab ilmiy sohalarda qiziq masala bo‘lib kelgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida "assotsiatsiya" so‘zi lotincha «associatio» so‘zidan kelib chiqqanligi ko‘rsatilgan bo‘lib, qo‘shilma, birlashma ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan. Va psixologiya sohasi atamasi sifatida "Nerv-miya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan alohida psixik aktlar, ya’ni tasavvurlar, fikrlar, his-tuyg‘ular orasidagi bog‘lanish va shu bog‘lanishga asoslangan idrok" deb izohlangan. "Assotsiatsiya" so‘zini fanga atama sifatida ingliz faylasuf olimi Jon Lokk kiritgan bo‘lib, o‘zining "Inson tushunchasi tajribasi" asarida assotsiatsiyalarni "bir g‘oyaning paydo bo‘lishi ikkinchisiga sabab bo‘ladigan, va u qaysidir ma’noda birinchisiga bog‘liq bo‘ladigan jarayon" deb tushuntirgan. Ushbu atamani tilshunoslik sohasida F. de

Sossyur ilk bor qo'llagan bo'lib, Uning ijodida "assotsiatsiya", "assotsiativ munosabatlar" kabi atamalar ko'p uchraydi. Uning fikricha, so'zlar nutqda bir-biri bilan bog'lanib, o'zaro munosabatga kirib yangi assotsiativ munosabatlarni kashf qiladi. Masalan, "yoz" so'zi beixtiyor yana ko'plab so'zlarni, jumladan, issiq, quyosh, hordiq, quvonch, ta'til, dengiz, salqin ichimliklar, muzqaymoq va shu kabi so'zlar assotsiatsiyasini uyg'otadi . Ushbu dissertatsiya tilshunoslik tadqiqotlaridan farqli o'laroq, tarjima matniga ko'chgan so'zlarning asliyatga nisbatan assotsiatsiya farqlari haqidadir. Bunda L.Nelyubinning tarjimashunoslikning izohli lug'atidagi birinchi izohiga tayanildi. Unga ko'ra, "1. Alovida tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlik, bunda bir tushuncha ikkinchisini chaqiradi; 2. Til birliklarini rasmiy yoki soxta-semantik belgilariga ko'ra birlashtirish" ma'nolarini anglatadi. R.K.Minyar-Beloruchev millatlar dunyoqarashi farqlari haqida so'z yuritib aytadiki, "kommunizm, kapitalizm, demokratiya va hokazo so'zlarning mazmuni sotsialistik va kapitalistik mamlakatlardagi tadbirkorlar va ishchilar orasida turlicha talqin qilinadi" . Ya'ni, har bir til birligi ona tilida o'zining ma'nosi, ma'lumoti, assotsiatsiyasiga egadir. Hamda "so'zning madaniy foni uning foydalanuvchilari yuzaga keltirgan milliy bo'yoqdir assotsiatsiyalar to'plamiga bog'liqdir" .

Tadqiqoti badiiy asarda aks etgan yapon milliy madaniyatini tashkil qiluvchi xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlari, tarixiy va geografik joylashuvini hamda moddiy madaniyatini ifoda etuvchi til birliklarining tarjima matni(o'zbek tili)ga siljishi, assotsiativ xususiyatlariga bag'ishlanganligi bois, ularni lingvomadaniy aspektida tadqiq qilish maqsad qilingan. Dissertatsiyada badiiy tarjimada madaniyatning transfer bo'lishi til egalari xalqlarining madaniyati, olamga nisbatan qadr-qimmatidagi tafovutlarni tarjima matniga ko'chgan lingvomadaniy birliklar, madaniyatga oid moddiy va ma'naviy birliklar orqali tahlil qilindi. Ya'ni, madaniy fonga ega til birliklarining tarjima matniga ko'chgangagi holatini va u bilan bog'liq assotsiatsiyalar o'rganildi.

Tarjima transferini tahlil qilishda, tarjimaning nimaga urg'u berib amalga oshirilganini inobatga olish muhim masala. P.Nyumark asl matnga yoki tarjima

matniga urg‘u berilgan tarjimalarni tarjima usullari guruhiga bo‘lib, ajratib chiqqan . Unga ko‘ra, asliyat tiliga urg‘u berilgan tarjima usullari: lug‘aviy tarjima (yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima), so‘zma-so‘z tarjima, asliyatga sodiq tarjima, semantik tarjimalardir. Tarjima tiliga urg‘u berilgan tarjima usullariga esa adaptatsiya, erkin tarjima, idiomatik tarjima hamda kommunikativ tarjima usullarini sanab o‘tadi. Ko‘rinib turibdiki, asliyat tiliga urg‘u berilgan tarjima uslublari ko‘proq rasmiy yo‘nalishga xos bo‘lsa, tarjima tilini maqsad qilib amalga oshirilgan tarjimalarda badiiy tarjima yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlashi kuzatildi.

Nazorat uchun savollar:

1. Lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy maqsadi nima?
2. V.fon Gumboldtning “millatimning tili chegarasi mening dunyoqarashimning chegarasini belgilaydi” degan jumlasida siz nimani tushundingiz?
3. Assotsiatsiya tushunchasi nima? Uning matn bilan nima aloqasi bor?

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Natsume Sosekining 「こころ」 asaridan parcha tarjima qiling.
2. Madaniy fonga ega birliklarni tarjimasiga ahamiyat bering.

五

私わたくしは墓地の手前にある苗畠なえばたけの左側からはといって、両方に楓かえでを植え付けた広い道を奥の方へ進んで行った。するとその端はずれに見える茶店ちやみせの中から先生らしい人がふいと出て來た。私はその人の眼鏡めがねの縁ふちが日に光るまで近く寄って行った。そして出し抜けに「先生」と大きな声を掛けた。先生は突然立ち留まって私の顔を見た。

「どうして……、どうして……」

先生は同じ言葉を二遍へん繰り返した。その言葉は森閑しんかんとした昼の中うちに異様な調子をもって繰り返された。私は急に何とも応こたえられなくなった。

「私の後あとを跟つけて来たのですか。どうして……」

先生の態度はむしろ落ち付いていた。声はむしろ沈んでいた。けれどもその表情の中うちには判然はつきりいえないような一種の曇りがあった。

私は私がどうしてここへ来たかを先生に話した。

「誰だれの墓へ参りに行ったか、妻さいがその人の名をいいましたか」

「いいえ、そんな事は何もおっしゃいません」

「そうですか。——そう、それはいうはずがありませんね、始めて会ったあなたに。いう必要がないんだから」

先生はようやく得心とくしんしたらしい様子であった。しかし私にはその意味がまるで解わからなかつた。

先生と私は通りへ出ようとして墓の間を抜けた。依撒伯拉何々イサベラなになにの墓だの、神僕しんぼくロギンの墓だのという傍かたわらに、一切衆生悉有仏生いっさいしゅじょうしつうぶっしようと書いた塔婆とうばなどが建ててあつた。全權公使何々というのもあつた。私は安得烈と彫ほり付けた小さい墓の前で、「これは何と読むんでしょう」と先生に聞いた。「アンドレとでも読ませるつもりでしょうね」といつて先生は苦笑した。

先生はこれらの墓標が現わす人種々ひとさまざまの様式に対して、私ほどに滑稽こつけいもアイロニーも認めてないらしかつた。私が丸い墓石はかいしだの細長い御影みかけの碑ひだのを指して、しきりにかれこれいいたがるのを、始めのうちは黙つて聞いていたが、しまいに「あなたは死という事実をまだ真面目まじめに考えた事がありませんね」といった。私は黙つた。先生もそれぎり何ともいわなくなつた。

墓地の区切り目に、大きな銀杏いちょうが一本空を隠すように立っていた。その下へ来た時、先生は高い梢こずえを見上げて、「もう少しすると、綺麗きれいですよ。この木がすっかり黄葉こうようして、ここいらの地面は金色きんいろの落葉で埋うずまるようになります」といった。先生は月に一度ずつは必ずこの木の下を通るのであった。

向うの方で凸凹でこぼこの地面をならして新墓地を作っている男が、鍬くわの手を休めて私たちを見ていた。私たちはそこから左へ切れてすぐ街道へ出た。

これからどこへ行くという目的あてのない私は、ただ先生の歩く方へ歩いて行った。先生はいつもより口数を利きかなかった。それでも私はさほどの窮屈を感じなかつたので、ぶらぶらいっしょに歩いて行った。

「すぐお宅たくへお帰りですか」

「ええ別に寄る所もありませんから」

二人はまた黙って南の方へ坂を下りた。

先生のお宅の墓地はあすこにあるんですか」と私がまた口を利き出した。

「いいえ」

「どなたのお墓があるんですか。——ご親類のお墓ですか」

「いいえ」

先生はこれ以外に何も答えなかつた。私もその話はそれぎりにして切り上げた。すると一町ちようほど歩いた後あとで、先生が不意にそこへ戻って來た。

「あすこには私の友達の墓があるんです」

「お友達のお墓へ毎月まいげつお参りをなさるんですか」

「そうです」

先生はその日これ以外を語らなかつた。

4-MAVZU

MILLIY XOS SO'ZLARNING TARJIMASI

Til birliklari ichida madaniyatga oid so'zlarni aniqlashda O.Zgirovskaya madaniy komponent darajasini leksik birlikning ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'lib aniqlanishini tadqiqotida keltirib o'tadi. Ular denotativ daraja va konnotativ darajalardir. Agar matnda milliy o'ziga xos buyumlar, kundalik hayot va hodisa, moddiy madaniyatga oid leksik birliklar kelsa, demak madaniy ma'lumotlar denotat darajasida ifodalangan hisoblanib, bunday birliklarning tarjimashunoslik fanida ko'pgina atamalari bo'lib, ularga realiya, lakuna, kulbturemalar, ekvivalentsiz so'zlar va boshqalar kiradi.

Konnotat V.N.Teliyaga ko'ra, matnda so'zlovchining bilimi, emotsiyal holati, til birliklari o'zida saqlaydigan assotsiativ foni kabi bir qancha pragmatik omillar bilan bog'liq bo'lib, o'z mohiyati bilan grammatik hamda denotativ ma'no mazmunini ham to'ldirishga xizmat qilishi mumkin. Konnotat darajasidagi leksik birlikda garchi so'z umummadaniy hodisa va buyumni anglatuvchi so'z bo'lsa-da, biroq tahlil qilinayotgan tilda madaniy, tarixiy assotsiatsiyalarga asoslangan holda ma'lum ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Natijada tarjima asarini o'qiyotgan o'quvchi mana shu hodisa yoki predmet bilan bog'liq assotsiatsiya va obrazlari bilan asarni tushunadi. A.D.Shmelyov ta'kidlaganidek, konnotatlarda muhimi so'zlovchining aytadigan gapi emas, balki atayin diqqatni qaratmagan holda tabiiy ravishda o'z-o'zidan anglanilishidir. Asarni o'qish jarayonida har qanday kitobxon o'z dunyoqarashi nuqtai nazardan o'qir ekan, o'zga millatga mansub asarni o'qiyotganda ham ba'zi o'rirlarda o'z madaniyati qarashlaridan kelib chiqib tafakkur qilishi ham ba'zida oddiy hol.

Ushbu tadqiqotda matn tahlili madaniy "siljish" sifatida qiziqtirdi va "siljish" tushunchasi tarjima matnida madaniyat transferining aks etishini kuzatishda kalitli so'z bo'lib xizmat qiladi. Tarjima sodir bo'lar ekan, madaniy belgilar boshqa assotsiatsiya bilan qabul qilinishi mumkin, demak, bunda u

madaniy vazifasini ham o'zgartiradi. Konnotat darajasidagi so'z siljish mobaynida, uning ma'nosi kengayishi yoki torayishi kuzatildi.

Transfer asos bo'lган yondashuv tarjima qiyinchiliklari yoki xatolarini emas, balki jamiyatga bog'liqlik tomonlari va tarjimani maqsadli faoliyat nuqtai nazaridan o'rganadi. Tarjima matnida asl matn madaniyatining tasvirlanishi tarjimonning kitobxon auditoriyasini maqsad qilib olishiga bog'liq. Tarjimani kitobxonga moslashtirib amalga oshirilishi ya'ni, tarjima matniga madaniyatga xos so'zlarning qo'shilishi, madaniyatni ifodalovchi leksikaning tarjima tilidagi madaniyatni ifodalovchi leksika bilan almashtirilishi, ba'zi so'zlarning izohi bilan berish kabilar albatta o'quvchining asarni yaqindan tushunishi, undan ko'proq ma'lumot olishiga sabab bo'ladi. Asl matnda mavjud bo'lмаган, tarjima matni madaniyatiga oid so'z, birikmalarning qo'shilishi ham kitobxonning asar "ichiga" kirishi, tushunishiga turtki bo'ladi.

Tahlil qilinayotgan Natsume Sosekining "Qalb" asari tarjimasida ham o'zbek millati madaniyatiga oid birikmalarni qo'llanilganiga guvoh bo'lish mumkin:

「呼ばなくっても好いが、呼ばないと又何とか伝うから。」

(夏目漱石 [NatsumeSoseki]、 「こころ」 [kokoro] 93-b.) .

[yobanakutte mo yoi ga, yobanai to mata nan to ka tsutau kara]

So'zma-so'z tarjima: "Chaqirmasak ham yaxshiku-ya, chaqirmasak yana nima deb o'ylashadi."

"Chaqirmasak ham bo'lardi, ammo keyin xafa bo'lishadi-da. Ko'zday qo'shnilar." (Jahon adabiyoti, iyunъ-2013. 117-b.)

Yuqoridagi jumlada poytaxtda universitetni bitirib, diplom bilan o'z jonajon qishlog'iga qaytgan o'g'lining sharofatiga qo'shnilarini mehmonga chaqirish haqida gap ketadi. Tarjimon jumlaning yanada jonli chiqishi, o'zbeklar hayotiga yaqinlashtirib, asl matnda yo'q bo'lган "ko'zday qo'shnilar" iborasini qo'llagan. Va yana "nima deb o'ylashadi" jumlesi "xfaf bo'lishadi" jumlesi bilan berilgan. Zero, o'zbeklar hayotida ham qo'shnilar muhim o'rinn tutib, ayniqsa, qishloq hayotida yangilikdan bexabar qolgan "ko'zday" qo'shnilar xafa bo'lishi

tabiiy hol. Har ikki matnda ham qo'shnilarining o'rni, ularning fikri o'rinli degan nuqtai nazardan, madaniyatlar o'xshash ekanligi kuzatilsada, o'zbek tiliga qilingan tarjimada o'zbekona madaniyatdan kelib chiqib, qo'shnilarga ta'rif berilgani sababli assotsiatsiyaning o'sishi kuzatidi.

Quyida beriladigan misolda to'liq madaniyat transferini namoyon bo'lgan:
「ああ帰ったかい。 そうか、それでも卒業ができてまあ結構だった。
ちょっと御待ち、今顔を洗って来るから。」(88-b.)

[ā kaetta ka i. sō ka, sore de mo sotsugyō ga dekite mā kekkō datta. chotto o machi, ima kao wo aratte kuru kara.]

So'zma-so'z tarjima: "Ha, keldingmi? Shunday qilib, o'qishni bitirganing juda yaxshi bo'libdi. Biroz kutib tur, hozir yuzimni yuvib kelay."

"Keldingmi, bolam? O'qishni bitirdingmi? Balli! O'tira tur, men bundoq yuz-qo'limni chayib olay."(iyunъ-2013, 115-b.)

So'zma-so'z tarjimani asl tarjima bilan solishtirganda, manba sifatida olingen tarjimada haqiqiy o'zbeklar oilasida ota-onalar tomonidan tez-tez ishlatiladigan "bolam", "balli" so'zlari qo'llanilib, kitobxon asar o'qish jarayonida o'zbeklarga xos turmush tarzi tasavvuri ham gavdalanishiga sabab bo'ladi. "O'qishni bitirganing yaxshi bo'libdi" jumlasining o'rniga ritorik savol bilan birgalikda "balli" so'zining qo'llanilishida ma'noning siljishini kuzatildi. Ya'ni, asl matnda shahardan endigina kirib kelgan o'g'il va uning otasi suhbatida ota o'zining kasalligi va hayotligida o'g'lining qaytganiga "bitirganing yaxshi bo'libdi" deyilgan bo'lsa, o'zbek tiliga qilingan tarjimada "balli", "bolam" kabi so'zlarning qo'shilishi natijasida jumlaga iliqlik, o'zbekona bag'rikenglik kabi xislatlar qo'shib ma'no siljiganini ko'rish mumkin. "Balli" so'zida qahramonning otasi o'g'lining oliy o'quv yurtini tamomlaganiga aytgan maqtovida leksik birlik konnotativ darajada kelgan va bu orqali ma'no o'sgan. Zero, "balli" so'zi maqtov, tahsin, xursand bo'lish, g'urur kabi assotsiatsiyalar yig'indisidan iboratdir. Shu jihatdan olib qaralsa, tarjima kitobxon dunyoqarashini, millatini hisobga olgan holda tarjima amalga oshirilgan.

Millatning til manzarasini, ya’ni uning madaniyati, ongi, dunyoqarashini aks ettirishda o’sha millatning til boyligidagi maqol, idiomalar ham katta ahamiyatga ega. Maqol va iboralar madaniyat ko’zgusi, xalqning urf-odatlari, qadriyatlarini aks ettirar ekan, tarjima matni madaniyat transferi sifatida namoyon bo’lishida ularning ahamiyati katta.

「どうも君の顔には見覚えがありませんね。人違いじゃないですか。」と伝ったので私は変に一種の失望を感じた。(12-13b.)

[dō mo kimi no kao ni wa mioboe ga arimasen ne. hitochigai ja nai desu ka. to tsutatta no de watakushi wa hen ni isshu no shitsubō wo kanjita.]

So’zma-so’z tarjima: “Umuman seni yuzingni eslay olmadim. Boshqa inson bilan adashtirmayapsanmi?” degani uchun men kutilmaganda go’yo umidsizlikni his qildim.

- Men esa seni hech ilgari ko’rmagandayman, balki meni kim bilandir adashtirayotgandirsan. Bu javobdan tarvuzim qo’ltig’imdan tushib, noqulay ahvolda qoldim. (may-2013, 10-b.)

Tarjimon ushbu misolda tarjima matnida “tarvuzi qo’ltig’idan tushdi” iborasidan mohirona foydalangan. O’zbek tilining izohli lug’atida ushbu idiomaga “umidi puchga chiqmoq; hafsalasi pir bo’lmoq” deb ta’rif berilgan bo’lib, “umidsizlik”ni ifodalovchi bu idioma orqali tarjimon asliyatdagi “kutilmaganda”, “umidsizlikni his qildim” jumlalariga idioma orqali mos ekvivalent qo’llay olgan. Va oddiy so’zni o’zbek millatiga xos idioma bilan berish orqali tarjima matnidagi ushbu jumla yangi konnotatsiya bilan boyigan.

Keyingi bo’lim va boblarda ham ko’rib chiqqan tahlillar orasida oddiy so’zlarni o’zbek tiliga oid maqollar bilan tarjima qilingani ko’zga tashlanadi. Asliyatdagi oddiy so’zlarni ham maqol va ibora bilan tarjima qilingani kitobxonda asardagi holat, voqeani o’z millati madaniyati nuqtai nazaridan tasavvur qilishga sabab bo’ladi. Chunki, maqol va iboralar yillar davomida shu millatning yildan-yilga o’tib keluvchi, tarixi, qadriyatlari, madaniyatini o’zida aks ettiradi.

Tarjima matnining transfer bo'lishi haqidagi tahlillar yuqoridagi fikrlarning davomi sifatida keyingi bob va bo'limlardagi misollarda ham o'z aksini topadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimaning pragmatik omillari deganda nimani tushunasiz?
2. Birnchi tahlildagi transferni nimada deb ko'rasiz?
3. Milliy xos so'zlar deganda nimani tushunasiz? Misollar bering.

Amaliy mashg'ulot uchun vazifa:

1. Quyidagi Natsume Sosekining "Qalb" asaridan parchani o'zbek tiliga qilingan tarjima bilan solishtiring.
2. Milliy xos so'zlarni topib uning tarjimasiga ahamiyat bering.

二

私わたくしがその掛茶屋で先生を見た時は、先生がちょうど着物を脱いでこれから海へ入ろうとするところであった。私はその時反対に濡ぬれた身体からだを風に吹かして水から上がって来た。二人の間あいだには目を遮さえぎる幾多の黒い頭が動いていた。特別の事情のない限り、私はついに先生を見逃したかも知れなかった。それほど浜辺が混雑し、それほど私の頭が放漫ほうまんであったにもかかわらず、私がすぐ先生を見付け出したのは、先生が一人の西洋人を伴つっていたからである。

その西洋人の優れて白い皮膚の色が、掛茶屋へ入るや否いなや、すぐ私の注意を惹ひいた。純粹の日本の浴衣ゆかたを着ていた彼は、それを床几しようぎの上にすぼりと放ほうり出したまま、腕組みをして海の方を向いて立っていた。彼は我々の穿はく猿股さるまた一つの外ほか何物も肌に着けていなかった。私にはそれが第一不思議だった。私はその二日前に由井ゆいが浜はままで行って、砂の上にしゃがみながら、長い間

西洋人の海に入る様子を眺ながめていた。私の尻しりをおろした所は少し小高い丘の上で、そのすぐ傍わきがホテルの裏口になっていたので、私の凝じつとしている間あいだに、大分だいぶ多くの男が塩を浴びに出て来たが、いずれも胴と腕と股ももは出していなかった。女は殊更ことさら肉を隠しがちであった。大抵は頭に護謨製ゴムせいの頭巾ずきんを被かぶって、海老茶えびぢやや紺こんや藍あいの色を波間に浮かしていた。そういう有様を目撃したばかりの私の眼めには、猿股一つで済まして皆みんなの前に立っているこの西洋人がいかにも珍しく見えた。

彼はやがて自分の傍わきを顧みて、そこにこごんでいる日本人に、一言ひとこと二言ふたこと何なにかいった。その日本人は砂の上に落ちた手拭てぬぐいを拾い上げているところであったが、それを取り上げるや否や、すぐ頭を包んで、海の方へ歩き出した。その人がすなわち先生であった。

私は単に好奇心のために、並んで浜辺を下りて行く二人の後姿うしろすがたを見守っていた。すると彼らは真直まっすぐに波の中に足を踏み込んだ。そして遠浅とおあさの磯近いそちかくにわいわい騒いでいる多人数たにんずの間あいだを通り抜けて、比較的広々した所へ来ると、二人とも泳ぎ出した。彼らの頭が小さく見えるまで沖の方へ向いて行つた。それから引き返してまた一直線に浜辺まで戻つて來た。掛茶屋へ帰ると、井戸の水も浴びずに、すぐ身体からだを拭ふいて着物を着て、さっさとどこへか行つてしまつた。

彼らの出て行つた後あと、私はやはり元の床几しようと腰をおろして烟草タバコを吹かしていた。その時私はぽかんとしながら先生の事を考えた。どうもどこかで見た事のある顔のようと思われてならなかつた。しかしどうしてもいつどこで会つた人か想おもい出せずにしまつた。

その時の私は屈託くったくがないというよりむしろ無聊ぶりように苦しんでいた。それで翌日あくるひもまた先生に会った時刻を見計らって、わざわざ掛茶屋かけぢややまで出かけてみた。すると西洋人は来ないで先生一人麦藁帽むぎわらぼうを被かぶってやって来た。先生は眼鏡めがねをとって台の上に置いて、すぐ手拭てぬぐいで頭を包んで、すたすた浜を下りて行った。先生が昨日きのうのように騒がしい浴客よくかくの中を通り抜けて、一人で泳ぎ出した時、私は急にその後あとが追い掛けたくなった。私は浅い水を頭の上まで跳はねかして相当の深さの所まで来て、そこから先生を目標めじるしに抜手ぬきでを切った。すると先生は昨日と違って、一種の弧線こせんを描えがいて、妙な方向から岸の方へ帰り始めた。それで私の目的はついに達せられなかつた。私が陸おかへ上がって零しずくの垂れる手を振りながら掛茶屋に入ると、先生はもうちゃんと着物を着て入れ違いに外へ出て行った。

Нацумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 5(192), 2013. – Б. 7-34.

II

Мен тамаддихонада устозни учратганимда у кийимларини алмаштириб, денгизга кетишга шайланиб турган эди. Мен эса, аксинча, эндиғина денгиздан чиқиб, баданимни шамолга тутиб, куритаётгандым. Үртамизда қора сочли оломон ғиж-ғиж эдики, агар ўша биргина ўзига хос вазият бўлмаганда, мен устозимни кўздан қочирган, ҳозир у билан учрашмаган бўлардим. Устозимнинг ёнида бир европалик киши ҳам бор эди.

Бизда учрайвермайдиган оқбадан бу европалик дарҳол эътиборимни ўзига тортди. У японча ёзги кимоносини йиғма стулга қўйиб, денгиз томон кетмоқда эди. Эгнида ички кийимидан бошқа ҳеч нима бўлмагани учун бу ҳол менга ғалати туюлди. Икки кун олдин Юигахамада бўлганимда, соҳилда ўтириб, европаликларнинг қандай чўмилишини кузатган эдим. Барча эркакларнинг бадани ёпик, факат қўл ва оёқлари очик эди, холос. Айниқса, аёллари бутун баданини ёпиб турувчи кийимда чўмилишар,

устига-устак, барчаларининг резинкали бош кийимлари ҳам бор эди. Улар сариқ, кўк ва ҳаворанг бўлганидан, денгиз мавжланганида кўзга яккол ташланарди.

Мана бу европаликнинг ҳамманинг олдида биргина ички кийимда тургани менга ғалати туюлди.

У ёнида турган японга бир нималар деди-ю, икковлон сочиқларини кум устига ташлаб, денгизга тушиб кетиши. Ўша япон менинг устозим эди.

Мен уларнинг шундок денгизга кириб боришларини зўр қизикиш билан кузатиб турдим. Улар зумда сувга шўнғиб кетдилар. Соҳил якинида одамлар гавжумлигидан холироқ жойгача сузуб бориши. Чўмила-чўмила, денгиздан анча узоқлашиб кетиши. Бироздан сўнг яна соҳилга сузуб келиши. Тамаддихонага қайтиб, булоқ сувига чайнимасдан ҳам, апилтапил кийиниши-да, қаергадир кетиши.

Улар кетгандан сўнг мен ўриндиқда тамаки чекиб ўтириб, ҳалиги япон, яъни, хозирда устозим деб атайдиган киши ҳақида ўйланиб қолдим. Мен уни қаердадир кўргандек эдим. Менга шундай туюлмоқда эди. Лекин қаҷон, қаерда кўрганимни ҳар қанча уринмай, эслолмасдим.

Ўша вактда менинг жиддий машғулотим бўлмаганлиги боис зерикиб қийналардим. Шунинг учун эртаси куни атайлаб устозим келадиган вактни мўлжаллаб тамаддихонага ўтдим. Устозим у ерга ўзининг қамиш шляпасида ёлғиз кириб келди. Кўзойнагини ечиб, тезда бошига сочиқни ташлаб, қирғоқ томон кетди. Устоз худди кечагидек дам олаётганлар орасидан ўтиб, бир ўзи сувга тушар экан, яна уни кузатишга киришдим. Саёзликдан ўтиб, сувнинг анча чукур жойгача бордим ва у ердан устоз томон сузуб кетдим.

Қарасам, устозим кечагидан фарқли ўлароқ, тўғри юриб эмас, балки айланиб қирғоқ томон қайтиб кетаяпти. Шу билан мен мақсадимга етолмадим, яъни устозни кузатиш режаси амалга ошмай қолди. Мен қирғоқча чиқиб, баданимдаги сувларини қўлим билан сирқиб, тамаддихонага кирдим. Устоз аллақачон кийиниб, ташқарига чиқиб кетаётган экан.

5-MAVZU

TABIAT VA JOY NOMI BILAN BOG'LIQ SO'ZLARNING TARJIMADA BERILISHI

Tabiatga oid tushunchalar ham moddiy madaniyat turiga kirib, har bir xalqning o'ziga xos tabiati, unga bo'lgan munosabati orqali belgilanadi. Tabiat unsurlarini simvollashtirish, kundalik hayotda undan foydalanish tabiatni madaniyatning bir qismiga aylanishiga sabab bo'ladi.

Asarda tabiat, geografik joy nomlarini nomlanishida, o'lchov birliklarini keltirishda transfer sodir bo'lganini kuzatildi. Masalan, muallif qishlog'i hamda u yerdag'i odamlar, oilasi haqida so'z yuritib, shunday deydi:

都会から懸け隔たった森や田の中に住んでいる女の常として、母はこう
ことに掛けてはまるで無知識であった。 (90-b.)

[tokai kara kakehedatatta mori ya ta no naka ni sunde iru onna no tsune to shite, haha wa kō koto ni kakete wa marude mu chishiki de atta.]

“U shaharlik ayollardan farqli o'laroq dala va tog'lar etagida yashovchilar qatorida bunaqa narsalar oldida no'noqroq edi.” (iyun-2013, 116-b.)

Asl matnda 森や田の中に [mori ya ta no naka ni] – jumlesi o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilganda “o'rmon va dala(asosan guruch dalasi nazarda tutiladi) ichida” tarjima qilinsa-da, tarjimon O'zbekiston hududida o'rmonlarning deyarli uchramasligini hisobga olibmi yoki o'zbeklarda qishloq tasavvuri dalalar va tog' etaklari bilan bog'liqligi nuqtai nazaridanmi, shu jumlanı qo'llagan. Ya'ni o'zbek hamda yaponlarning qishloq hayoti va uni joylashgan hududi haqidagi tasavvurlar boshqa-boshqa. Ushbu matnda almashtirish usulidan foydalanilgani natijasida madaniyat transferi sodir bo'lgan. Tarjima matni o'quvchisida qishloq tasavvurini uyg'otish maqsadida foydalanilgan ushbu usul ma'noning siljishiga sabab bo'lgan. Chunki, asliyat matni va tarjima matni o'quvchilarida qishloq haqidagi assotsiatsiyalar turlicha.

Yana shunga o'xshash holatni quyidagi misolda ko'rish mumkin:

うちへ帰って案外に思ったのは、父の元気がこの前見た時と大して変わっていないことであった。(88-b.)

[uchi e kaette angai ni omotta no wa, chichi no genki ga kono mae mita toki to taishite kawatte inai koto de atta.]

“Qishloqqa qaytib kelgach, otamning ahvolini ko’rib xafa bo’lib ketdim. Chunki oxirgi marotaba ko’rganimga nisbatan ahvoli o’zgarmagan edi.” (iyun-2013, 115-b.)

Yapon tilida gapiruvchi muallif o’ziga tegishli bo’lgan joyga うち[uchi] deb ta’rif beradi. Bu so’z “uyim” ma’nosida kelsa-da, odatda berilayotgan kontekstga nisbatan “yurtim”, “oilam”, “men” kabi so’zlar ma’nosida ham qo’llanilishini ham kuzatish mumkin. Yuqorida asardan keltirilgan misolda ham うちへ [uchi e] so’zi bilan boshlangan bo’lib, o’zbek tiliga generelizatsiya holida “qishloqqa” deya ma’no siljigan. Chunki yapon tilida aynan “uyimga”mi, “oilamga”mi yoki “qishloqqa”mi aniq emas, yapon tilida aynan “menga tegishli, meniki” degan ma’no anglanadi. うちへ [uchi e] so’zi “qishloqqa” deb tarjima qilinganda ma’no assotsiatsiyalari kengayadi. Yapon tilida うちへ [uchi e] so’zida muallifga tegishli biror joyligi ifoda etilsa, “qishloqqa” so’zida umumiy joy nomi bilan birga dalalar, undagi sharoit, uylar, qishloq odamlari ham ko’z o’ngida gavdalanadi.

Tahlil qilinayotgan “Qalb” asari 1914-yilda yozilgan bo’lib, asar tarjimasida o’sha davr ruhini berish uchun bir qancha xos so’zlardan foydalangan. Quyidagi misolda asliyatda harakat ko’rsatilgan bo’lsa-da, tarjima matnida transferga sabab bo’lgan ob’ekt, ya’ni joy nomi ham ko’rsatilib o’tiladi.

それからそのお菓子屋の店に腰を掛けて、上さんに詳しい事を教えてもらいました。(148-b.)

[sorekara sono o kashiya no mise ni koshi wo kakete, uesan ni kuwashī koto wo oshiete moraimashita.]

“Shu bois qandolat do’konı yonidagi supachaga o’tirib, qandolatfurush xotindan hammasini surishtirdim.” (iyun-2013, 128-b.)

Misolda 腰を掛け [koshi wo kakete] iborasi o'zbek tiliga "o'tirmoq" deb tarjima qilinib, aynan qaerga o'tirishi bayon etilmagan. それからそのお菓子屋の店に腰を掛け [sorekara sono okashiya no miseni koshi wo kakete] jumlesi so'zma-so'z "shundan keyin qandolat do'koniga o'tirib" deb tarjima qilinsa-da, o'zbek tiliga qilingan tarjimada o'tirish ob'ekti ko'rsatilib, "supa" so'zi tanlangan. O'zbek tili izohli lug'atida ushbu so'zga "hovli, bog", umuman ochiq yerda o'tirish, yotish-turish uchun tuproqdan chorburchak shaklida ko'tarib qurilgan joy", deb izoh berilgan. "Supa" o'zbek hovlilarida uchratish mumkin bo'lган o'tirish joyi bo'lib, "yonboshlab o'tirish", "xotirjam suhbatlashish" kabi assotsiatsiyalari mavjud. Asardagi "qandolatfurush xotindan hammasini surishtirdim" jumlasidagi qahramonning batafsil, o'tirib suhbat qurbanini, "hammasini surishtirdim" kabi ma'nolar yig'indisini tarjima matnidagi "supa" tasavvuri bergen. Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu jumla transfer bo'lish natijasida ma'no o'sgan va buning natijasida o'z ichiga o'zbekcha assotsiatsiyani ham qamrab olgan.

Yaponiya tog' bilan o'ralgan, orollarga boy tabiat bilan ajralib turadi. Ko'pgina tabiatga oid tushunchalar yaponlarning milliy madaniyati bilan bog'liq. Fudjiyama tog'i, Sakura daraxti, Xrizantema guli kabilar shular jumlasidandir.

Yapon millati sakura daraxtini bahor ramzi, go'zallik ramzi sifatida qarashlari, ushbu daraxt gullaganida maxsus sayllar o'tqazishi butun dunyoga ma'lum. "Bir so'z bilan aytganda Sakura – Yaponiyaning, yaponlarning ramziga aylanib qolgan, desak hech mubolag'a bo'lmaydi".

Ko'pgina yapon asarlari tarjima qilingan matnlarda sakura daraxti gulini "olcha daraxti guli" deb tarjima qilingan. Bu so'z nafaqat o'zbek tilida, balki, ingliz tilida "cherry blossom", rus tilida ham ba'zi asarlarda "tsvetы vishni" deb tarjima qilingan. Biroq manbada kelishicha, "sakura daraxti gulining xushbo'y hidiga kishi mast bo'lib qoladi. U har xil rangda gullaydi – oppoq, binafsha, sarg'ish tusda, bamisolli bizdagi bodom va gilos gullarini eslatadi". Lekin dunyo tillariga sakura guli "olcha guli" sifatida transfer bo'lib ulgurgan. Yaponiya

haqidagi maqolalardan Sakura guli “olcha daraxti guli” birikmasiga ko’chganini ko’rishimiz mumkin. Sakura daraxtini ko’rmagan inson tarjima matnlari orqali olcha daraxtini tasavvur qiladi.

Quyidagi misollarda ham sakura gulining olcha guliga transfer bo’lgani kuzatildi. Zero, sakura daraxti mevasiz daraxt bo’lib, manzarali daraxtlar sirasiga kiradi.

或時花時分に私は先生と一所に上野へ行った。そして其所で美しい一対の男女を見た。(32-b.)

[aru toki hana jibun ni watakushi wa sensei to issho ni Ueno e itta. soshite sono tokoro de utsukushī ichi tai no danjo wo mita.]

“Bir gal biz olcha gullaganini ko’rgani Ueno bog’iga borganimizda, u yerda chiroyli yosh juftlikka ko’zimiz tushdi.” (may-2013, 8-b.)

Tarjimada olcha guli birikmasining qo’llanishi bir tomonidan o’zbek kitobxoniga qiyg’os gullagan daraxt misolida to’g’ri tasavvur hosil qilishga xizmat qilgan bo’lsa, ikkinchi tomonidan asl yapon milliy daraxti sakura haqida tushuncha yo’qolishiga olib kelgan. Bunda aynan yapon milliy daraxtini tasavvur qildirish uchun sakura so’zini realiya tarzida berib, uning izohini va gullashi holatini alohida satr ostida berish mumkin edi. Zero, sakura so’zi realiya sifatida dunyo tillarida ham muomalaga kiritilgan.

Ushbu misolni boshqa tarafdan tahlil qiladigan bo’lsak, asliyatdagi 花時分 [hanajibun] birikmasi “gullar mavsumi” deb tarjima qilinib, gullar ochiladigan vaqt – bahorni nazarda tutiladi. Biroq, tarjima matnida “olcha gulini ko’rgani” jumlasidan anglanadiki, ko’pgina davlatlarda Yaponiyada “gullar ochilish mavsumi” deganda, sakura guli (asar tarjimasida olcha guli) tasavvuri namoyon bo’ladi.

Yaponiyada fasllar tabiat belgilari orqali belgilanadi. Yuqoridagi “gullar ochilish mavsumi” bahorni anglatsa, quyida berilgan qiyg’os ochilgan sakura gullari to’kilib, novdalarda yashil barglar nish ura boshlagan yoz fasli edi jumlesi tarjima matnida quyidagicha namoyon bo’ladi:

私の自由になったのは、八重桜の散った枝にいつしか青い葉がかすむように伸び始める初夏の季節であった。(62-b.)

[watakushi no jiyū ni natta no wa, yaezakura no chitta eda ni itsu shi ka aoi ha ga kasumu yō ni nobihajimeru shoka no kisetsu de atta.]

“Men yana avvalgidek qushday yengil tortdim. Yozning boshlanishi edi, olchalar gulini to’kib shoxlari yalang’ochlangan, kurtaklar endi-endi uch bera boshlagan edi.” (may-2013, 23-b.)

O’zbekistonda olcha gulining yaproqlari bahor fasli o’rtalarida to’kilgani sababli, o’zbek millati tasavvurida olcha gulining to’kilishi yoz fasli boshlanishi tasavvurini bermaydi. Biroq, tarjimani natija sifatida tahlil qiladigan bo’lsak, transfer bo’lgan sakura guli shakl jihatidan olcha daraxtiga o’xshasa-da, uning iforli hidi haqidagi tasavvur yo’qoladi. Shu jihatdan, “sakura” so’zi tarjimalarda realiya shaklida berilsa, o’rinli bo’lar edi.

Asarda uchragan yana bir boshqa joy nomi bilan bog’liq bo’lgan transferda “gul bog’i yonidagi joy” so’zi adaptatsiyaning tushirib qoldirish usulidan foydalanilib, o’zbeklarga xos bo’lgan joy nomiga almashtirilgan. このしゃくやく場だけのそばにある古びた縁台のようなものの上に先生は大の字なりに寐た。 (63-b.)

[kono shakuyaku-jō dake no soba ni arufurubita endai no yō na mono no ue ni sensei wa dainoji-nari ni neta]

“Uvat chetida bir eski o’rindiq bor ekan, ustozim shu o’rindiqqa yonboshlab oldi.” (may-2013. 24-b.)

Ushbu tarjimada tarjimon adaptatsiyaning tushirib qoldirish usulidan foydalangan. Garchi bir qancha so’zlar tushirib qoldirilgan bo’lsa-da, tarjimon jumla ma’nosini yetkazishga harakat qilgan. しゃくやく場だけのそばに [shakuyaku ba dake no soba ni] ya’ni, “piyozgul bog’ining yonginasida” jumlasiga tarjimon sof o’zbek tilidagi “uvat” so’zini bergen. Uvat so’zining “dala yoki ekin maydoni ichida, qirg’oqlarida qoldirilgan bo’sh yer” ekanidan kelib chiqsak, ma’no yetkazilgan. Chunki, tarjima matnida bu misoldan avvalgi

jumlalarda ular piyozgul bog'ida ekanliklari bayon etilgan . "Uvat" so'zi bilan bog' tasavvuri dala assotsiyasiga ko'chgan bo'lib, sof o'zbek tiliga oid so'z orqali jumlada madaniyat transferini kuzatish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tabiatga oid istilohlarning ahamiyati.
2. 花見 so‘zining tarjimasini qanday bergen bo‘lar edingiz?
3. Berilgan oxirgi tarjimaga munosabatingiz.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Quyidagi Natsume Sosekining "Qalb" asaridan parchani o‘zbek tiliga qilingan tarjima bilan solishtiring.
2. Tabiatga oid so‘zlarni topib uning tarjimasiga ahamiyat bering.

私わたくしは月の末に東京へ帰った。先生の避暑地を引き上げたのはそれよりずっと前であった。私は先生と別れる時に、「これから折々お宅たくへ伺っても宜よござんすか」と聞いた。先生は単簡たんかんにただ「ええいらっしゃい」といっただけであった。その時分の私は先生とよほど懇意になつたつもりでいたので、先生からもう少し濃こまやかな言葉を予期して掛かかったのである。それでこの物足りない返事が少し私の自信を傷いためた。

私はこういう事でよく先生から失望させられた。先生はそれに気が付いているようでもあり、また全く気が付かないようでもあった。私はまた軽微な失望を繰り返しながら、それがために先生から離れて行く気にはなれなかった。むしろそれとは反対で、不安に搖うごかされるたびに、もっと前へ進みたくなった。もっと前へ進めば、私の予期するあるものが、いつか眼の前に満足に現われて来るだろうと思った。私は若かった。

けれどもすべての人間に対して、若い血がこう素直に働くとは思わなかつた。私はなぜ先生に対してだけこんな心持が起るのか解わからなかつた。それが先生の亡くなつた今日こんにちになつて、始めて解つて來た。先生は始めから私を嫌っていたのではなかつたのである。先生が私に示した時々の素氣そつけない挨拶あいさつや冷淡に見える動作は、私を遠ざけようとする不快の表現ではなかつたのである。傷いたましい先生は、自分に近づこうとする人間に、近づくほどの価値のないものだから止よせという警告を与えたのである。他ひとの懐かしみに応じない先生は、他ひとを軽蔑けいべつする前に、まず自分を軽蔑していたものとみえる。

私は無論先生を訪ねるつもりで東京へ帰つて來た。帰つてから授業の始まるまでにはまだ二週間の日数ひかずがあるので、そのうちに一度行っておこうと思つた。しかし帰つて二日三日と経たつうちに、鎌倉かまくらにいた時の気分が段々薄くなつて來た。そうしてその上に彩いろどられる大都会の空気が、記憶の復活に伴う強い刺戟しげきと共に、濃く私の心を染め付けた。私は往來で学生の顔を見るたびに新しい学年に対する希望と緊張とを感じた。私はしばらく先生の事を忘れた。

授業が始まって、一ヶ月ばかりすると私の心に、また一種の弛たるみができてきた。私は何だか不足な顔をして往來を歩き始めた。物欲しそうに自分の室へやの中を見廻みまわした。私の頭には再び先生の顔が浮いて出た。私はまた先生に会いたくなつた。

始めて先生の宅うちを訪ねた時、先生は留守であった。二度目に行つたのは次の日曜だと覚えている。晴れた空が身に沁しみ込むように感ぜられる好いい日和ひよりであった。その日も先生は留守であった。鎌倉にいた時、私は先生自身の口から、いつでも大抵たいてい宅にいるという事を聞いた。むしろ外出嫌いだという事も聞いた。二度来て二度とも会えなかつた私は、その言葉を思い出して、理由わけもない不満をどこ

かに感じた。私はすぐ玄関先を去らなかつた。下女げじよの顔を見て少し躊躇ちゅうちょしてそこに立っていた。この前名刺を取り次いだ記憶のある下女は、私を待たしておいてまた内うちへはいった。すると奥さんらしい人が代つて出て來た。美しい奥さんであった。

私はその人から鄭寧ていねいに先生の出先を教えられた。先生は例月その日になると雑司ヶ谷ぞうしがやの墓地にある或ある仏へ花を手向たむけに行く習慣なのだそうである。「たつた今出たばかりで、十分になるか、ならないかでございます」と奥さんは氣の毒そうにいってくれた。私は会釈えしゃくして外へ出た。賑にぎやかな町の方へ一丁ちょうど歩くと、私も散歩がてら雑司ヶ谷へ行ってみる気になった。先生に会えるか会えないかという好奇心も動いた。それですぐ踵きびすを回めぐらした。

1. Напумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 5(192), 2013. – Б. 7-34.

IV

Ой охирида Токиога қайтдим. Устозим мендан аввалроқ қайтиб келган эди. У билан хайрлашаётганимда: “Токиода сизни гоҳ-гоҳ йўқлаб турсам бўладими?” – деб сўрадим. Устозим эса бунга, “Ҳа, ҳа, келавер”, деб жавоб берди. Бу вақтга келиб мен устозим билан анча яқин бўлиб улгурган ва шунинг учун ундан ижобий жавоб кутган эдим. Бундай қурукқина жавобдан таажжубга тушганимнинг сабаби шунда. Устозим мени кўп маротаба ҳайратга солар, гоҳо буни ўзи ҳам сезар, аммо сезмаган пайтлари ҳам бўларди. Мен эса умидим пучга чиққанини ҳис этардим. Аммо, шунда ҳам ундан узоклашишни ўйламас, аксинча, ҳар сафар мулоқотимиздан қониқиши ҳис этмаганимдан ташвишланардим ва ўргамиздаги ришта мустаҳкамроқ бўлишини хоҳлардим. Менимча, олдинга караб бораверсам, бир кун келиб орзуларим рўёбга чиқиши мумкиндай эди. Мен ёш эдим. Ким билан танишмай, ичимдагини ҳадеганда ошкор қилавермасдим. Нима учун менда айнан устозга нисбатан бундай туйғу уйғонганини ўзим ҳам билмасдим. Ушанда билмаслигим аниқ эди. Англаб етганимда эса, устозим ҳаётдан кўз юмиб кетганди. Устозим вафотидан сўнг менга бошиданоқ ёмон муносабатда бўлмаганлигини илк бор ҳис этдим. Унинг гоҳида мени хушламайгина кутиб олиши ва менга нисбатан ўзини бепарво тутиши мени ўзидан узоклаштирмоқчи бўлганини англатмасди. Унга

ўзини яқин тутмоқчи бўлган инсондан устозим гўёки ўзини тортиброқ туришни истар эди. Бундай яқинлашувдан маъно чиқмаса, яхшиси ундан воз кечган маъкул. Инсонлар билан осонликча мулокотга киришавермайдиган устозим кимнидир ҳимоя қилишдан аввал ўзи ҳимояга муҳтожлигини ҳезардим. Мен устозимни йўқлаш учун Токиога боришга аҳд қилдим. Уқиш бошланишига ҳали икки ҳафта бор эди. Бу вақт ичидаги униги ҳеч бўлмаганда бир марта бўлса ҳам бориб кўйсам дегандим. Камакурадан қайтганимдан кейин икки-уч кун ўтгач, менинг шаштим пасайди. Устига-устак, менга катта пойтахтнинг ёрқин мухити таъсир этди. Кўча-кўйда талабаларнинг юзига қараб, янги ўкув йили бошланганини, ёшларнинг куч-ғайратга тўлганини ҳис этиб, устозимни бир муддат унутдим.

Уқиш бошланганидан сал ўтгач, қалбимда яна қандайдир безовталик пайдо бўлди. Ҳаётдан қониқмаган ҳолда кўча кезадиган одат чиқардим. Хонага кирсам, худди бир нимам йўқолгану уни қидираётгандай атрофга аланглар эдим. Кўз ўнгимда яна устозим намоён бўлиб, яна у билан кўришиш истаги пайдо бўлди.

Мен устозимнинг уйига илк маротаба борганимда у уйида йўқ эди. Иккинчи маротаба кейинги якшанбада борганимни аниқ хотирлайман. Ажойиб об-ҳаво, очиқ осмон бутун борлиғимизга сингиб кетаётгандек туюларди менга. Бу сафар ҳам устозим уйда йўқ экан. Камакурада юрганимизда деярли ҳар куни уйда бўлишини, уйдан чикишни хушламаслигини ўз оғзидан эшитган эдим. Мана, мен бир эмас, икки маротаба келганимда ҳам уни учратолмадим. Унинг сўзларини эслаб, нимадандир хафалигини ҳис этдим. Аммо ўша заҳоти оптимга қайтмай, нима қилишни ҳам билмай, оқсочининг юзига қараб туравердим. Ҳозиргина менинг ташриф қофозимни олган оқсоч, “тура туриңг”, деди-да, ичкарига кириб кетди. Шунда уйдан гўзал бир аёл чиқиб келди. Ҳойнаҳой, устозимнинг турмуш ўртоғи бўлса қерак, деб ўйладим.

У хушмуомалалик билан устозим қаерга кетганини тушунтириди. Маълум бўлишича, ҳар ойнинг шу кунида устозим Зошигаядаги қабрга гул кўйгани борар экан.

“Ҳозиргина чиқиб кетган эди-я”, истиҳола билан жавоб берди ҳалиги аёл. У билан хайрлашиб, кўчага чиқдим. Шовқин кўчалардан юриб борар эканман, бирданига Зошигая томонга оёғим тортди. Уша ерда устозимни учратиб қолармикинман, деган умидда қабристон томон йўл олдим.

KIYIM-KECHAKKA OID SO‘ZLAR TARJIMASI

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiat bilan chambarchas bog’liq bo’lib, uning ma’naviy barkamolligi, o’zga millat madaniyatidan ajratib turuvchi vosita bo’lib, uning milliy madaniyatini o’ziga xos belgilaydi.

Yapon tilidagi “kimono” atamasi dunyo tillari leksikoniga kirgan so’z bo’lib, eshitganda yapon milliy kiyimi inson ko’z oldiga keladi. Yapon erkak va ayollarining milliy kiyimi “kimono” deb atalib, ular bir-biridan bichilishi, matosi orqali farqlanadi. Ushbu so’zni har doim ham “kimono” deb berish ma’qul bo’lavermaydi. Chunki, bu so’z matnda ba’zan “kiyim” ma’nosida ham qo’llanilib, buni “kimono” so’zining ieroglifidan ham tushunsa bo’ladi, ya’ni 着物 [kimono] – ieroglifdan so’z sifatida tarjima qiladigan bo’lsak, “kiyadigan narsa” ma’nosini beradi va “kiyim”, “erkak va ayollar kiyimi” deb, kontekstdan kelib chiqqan holda tarjima qilinadi. Realiya sifatida esa, yapon tili katta izohli lug’atida “aynan yapon xalqiga mansub, ko’p asrlar mobaynida qonun-qoidasiga ko’ra kiyiladigan milliy libos” deb izohlangan. “Qalb” asarining asl matnida ham 着物 [kimono] so’zi ko’p marotaba ishlatilgan bo’lib, tarjima matnida ham “kimono”, ko’p hollarda esa uning “kiyim” yoki “kostyum” deb tarjima qilingan. Yapon milliy kiyimlarining turi ko’p va ular asl matnda ham uchradi. “Kimono”, “xakama”, “xaori”, “yukata”lar shular jumlasidan bo’lib, ular marosimlari, kiyilishi, bichilishi bilan farq qiladi. Tarjima matnida ularni ko’p hollarda “kiyim” yoki milliy estetik rujni saqlab qolish uchun “kimono” deb tarjima qilinganini guvohi bo’ldik .

私が書物ばかり買うのを見て、奥さんは少し着物をこしらえろと伝いました。 (162-b.)

[watakushi ga shomotsu bakari kau no wo mite, okusan wa sukoshi kimono wo koshiraero to tsutaimashita.]

“Faqat kitob sotib olayotganimni ko’rib, bekach menga kostyum tiktirishni maslahat berdi.”(iyunъ-2013, 134-b.)

この羽織は此間拵(こないだこしら)えたばかりなんだよ。 (69-b.)

[kono haori wa kono aida koshiraeta bakari na n da yo]

“Bu kiyimni yaqinda tiktingan edim.” (may-2013, 28-b.)

“Tarjimada asliyatdagi kabi estetik ta’sirni hosil qilish, badiiy obrazni to’liq gavdalantirish ayrim hollarda tarjimonni jumla qurilishlarini o’zgartirishga, tarjimaning turli usullarini qo’llashga majbur qilishi mumkin” .Yuqorida 着物 [kimono] so’zining ekvivalenti sifatida “kostyum” so’zi tanlanib, generalizatsiya amalga oshirilgan. “Kostyum” so’zini eshitganda kimonodan farqli o’laroq yoqa va tugmali kalta kamzul inson ko’z oldida gavdalanadi. Ushbu misolda nafaqat ma’noning “siljigani”, balki shakl haqidagi tasavvur ham o’zgargan.

Ikkinchi misoldagi 羽織[haori] milliy kiyim turi generalizatsiya holida kiyim deb tarjima qilingan bo’lib, bu asar g’oyasiga ta’sir o’tkazmagan.

Yuqoridagi misollarda keltirilganidek, asar tarjimasidagi so’zlarda asarning yozilgan davri inobatga olib tarjima qilingan so’zlar uchradi. O’zbek tiliga qilingan tarjimada ham tarjimon XX asr boshi va o’rtalarida o’zbek tiliga kirib kelgan yoki o’zlashgan so’zlardan foydalanib, o’sha davr ruhini berishga harakat qiladi. G’.Salomovning bu xususdagi fikrlarini keltirish o’rinli: “Tarjima – muallif bilan bo’ladigan ehtirosli muhabbatning qonuniy farzandi. Bu muhabbat faqat zamondosh shoirlar, bir tarixiy davrda yashayotgan adiblar orasida emas, balki xilma-xil davrlarda yashagan ijodkorlar orasida ham paydo bo’lishi mumkin. Boshqa tarixiy sharoitda yashab ijod etgan, til va uslubi ancha eskirib qolgan shoirlar asarlarini tarjima qilish katta mehnatni, mashaqqatli izlanishlar, tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Adabiy asar chin insonparvarlik g’oyalari bilan sug’orilgan bo’lsa, u hamma davr kitobxonlarini hayajonga solishi mumkin. ... Tarjimonning vazifasi bunda shu bilan mushkullashadiki, u muallif davriga yaqinlashishi, yangi zamona kitobxonlarining sevikli do’stiga aylantirishi kerak. Bu esa o’tmishda yaratilgan asarning faqat g’oyasini, ma’nosini emas, shu

bilan birga, o'sha davr haqida ham tasavvur berish orqali amalgalashirishi mumkin."

"Qalb" asarida uchragan "po'rim", "furajka", "masterovoylar" kabi so'zlar shular jumlasidandir. Masalan,

...学校の制帽をとうとうの向かうのものに取られてしまったのです。

(135-b.) [gakkō no seibō wo tōtō no mukau no mono ni torarete shimatta no desu.]

"... Buning oqibatida ularning po'rim furajkalarini olib qo'yishar edi." (iyun-2013, 122-b.)

それから大学の制帽をかぶっていました。あなたは笑うでしょう、大学の制帽がどうしたんだだと伝って。けれどもその頃の大学生は今と違って大分世間に信用のあったものです。 (149-b.) [sorekara daigaku no seibō wo kabutteimashita. anata wa warau deshō, daigaku no seibō ga dō shita n da da to tsutatte. keredomo sono koro no daigakusei wa ima to chigatte Ōita seken ni shin-yō no atta mono desu.]

"Boz ustiga boshimda talabalarning po'rim furajkasi ham bor edi. Siz, albatta, kulayotibsiz, po'rim furajka, deb. Ammo o'sha paytlarda talabalarning obro'yi baland bo'lardi." (iyun-2013, 135-b.)

Berilgan jumlada qo'llangan 制帽[seibou] so'zi o'zbek tiliga bevosita "maxsus bosh kiyim" tarzida tarjima qilinadi. Jumla mazmuni asosida uning maktab, kollejda kiyiladigan maxsus bosh kiyim ekanligi tushuniladi. Tarjimon bu o'rinda 制帽[seibou] so'ziga muqobil sifatida "po'rim furajka" birikmasini qo'llagan.

Ma'lumki, eski o'zbek tilida "f" tovushi mavjud bo'limganligi o'zlashgan so'zlarda "f" tovushining "p" sifatida "buzib" talaffuz qilinishiga sabab bo'lgan . Ushbu tovush asosan arab, fors va rus tillaridan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan bo'lib, tabiiyki, o'zbek tilida ham qo'llanish ko'nikmasi bo'limgani tufayli, "Fotima" ismini "Potima", "fartuk" so'zini "partuk", "ulfat"- "ulpat" deya talaffuz

qilinadi. Hattoki, ba’zi so’zlar noto’g’ri talaffuz oqibatida o’zbek madaniyatiga transfer bo’lib, yangi ma’no hosil qilishiga ham guvoh bo’lish mumkin.

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyon bosib olganidan so’ng sobiq sho’ro tuzumi davrida o’zbek tiliga rus tilidan ko’plab yangi so’zlar o’zlashtirilgan bo’lib, “poson” hamda “po’rim” so’zlari shular jumlasidandir. “Poson” so’zi rus tiliga frantsuz tilidan kirib kelgan “fason” so’zining o’zbek tilidagi fonetik shakli hisoblanib, “olifta” ma’nosida “ko’chgan”. “Po’rim” so’zi ham rus tilidagi “forma” so’zidan olingan bo’lib, “O’zbek tilining izohli lug’ati”da uning “bashang, olifta” ma’nolarini ifodalashda qo’llanishi ko’rsatilgan . Ushbu so’zlarning bunday ma’noga ega bo’lishini o’zbek madaniyatida avval mavjud bo’lmagan, maxsus fason yoki formaga ega bo’lgan kiyimlar oliftalik, bashanglik tasavvurini berishi bilan izohlash mumkin.

“Qalb” romani matnidagi yuqorida keltirilgan 学校の制帽をとうとうの向かうのものに取られてしまったのです [Gakkō no seibō wo tōtō no mukau no mono ni torarete shimatta no desu] jumla-si so’zma-so’z tarjima qilinsa, “Oxir-oqibat maktab bosh kiyimini raqiblariga oldirib qo’yishar edi” mazmunini anglatadi.

Berilgan jumlada 制帽 [seibou] so’zining “maxsus bosh kiyim”ni anglatishi e’tiborga olinsa, “forma” (maxsus kiyim) so’zining o’rnida rus tili orqali o’zlashgan “po’rim” so’zining tanlanishi asar yozilgan davr ruhiyatini aks ettira olgan deyish mumkin. Xuddi shunday, “furajka” so’zi ham matnga davr ruhiyatini singdirishga hamda o’quvchida bosh kiyimning shakli xaqida muayyan tasavvur uyg’otishga xizmat qilgan. Bu so’z “O’zbek tilining izohli lug’ati”da “erkaklarning gardishli va qisqa soyabonli bosh kiyimi” tarzida izohlangan. Tarjimon bosh kiyimning shaklini hamda uning majburiy maktab kiyimi ekanini inobatga olib, tarjimada “po’rim furajka” birikmasini ishlatgan.

Tarjima matnida qo’llangan “po’rim” so’zining o’zbek tiliga rus tilidan o’zlashganligini inobatga olinsa, tarjima matnida millatlararo madaniyat transferining amalga oshgani kuzatiladi. Shuningdek, o’zbek tilida fonetik

o'zgarishga uchragan bu birlikning tarjimada ishlatilganligi ham madaniyat transferini yaqqol aks ettiradi.

Kiyim-kechak bilan bog'liq tahlillar natijasida milliy kiyimlar atamasi tarjimasi generalizatsiya usulidan foydalanilganligi va tarjimada madaniyat transferi amalga oshganda, ularning nafaqat ma'no jihatdan, balki, shakl jihatdan ham o'ziga xos tasavvur berishi ko'rindi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Kimono" so'zini tarjimasini siz qanday berasiz?
2. Kiyim-kechak so'zlarini tarjima qilishda nimalarga ahamiyat berish lozim?

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Quyidagi Natsume Sosekining "Qalb" asaridan parchani o'zbek tiliga qilingan tarjima bilan solishtiring.
2. Kiyim-kechakka oid so'zlarni topib uning tarjimasiga ahamiyat bering.

わたくしがその掛茶屋で先生を見た時は、先生がちょうど着物を脱いでこれから海へ入ろうとするところであった。私はその時反対に濡ぬれた身体からだを風に吹かして水から上がって来た。二人の間あいだには目を遮さえぎる幾多の黒い頭が動いていた。特別の事情のない限り、私はついに先生を見逃したかも知れなかった。それほど浜辺が混雑し、それほど私の頭が放漫ほうまんであったにもかかわらず、私がすぐ先生を見付け出したのは、先生が一人の西洋人を伴つっていたからである。

その西洋人の優れて白い皮膚の色が、掛茶屋へ入るや否いなや、すぐ私の注意を惹ひいた。純粹の日本の浴衣ゆかたを着ていた彼は、それを床几しようぎの上にすっぽりと放ほうり出したまま、腕組みをして海の方を向いて立っていた。彼は我々の穿はく猿股さるまた一つの外ほか何物も肌に着けていなかった。私にはそれが第一不思議だった。私はその二

日前に由井ゆいが浜はままで行って、砂の上にしゃがみながら、長い間西洋人の海に入る様子を眺ながめていた。私の尻しりをおろした所は少し小高い丘の上で、そのすぐ傍わきがホテルの裏口になっていたので、私の凝じつとしている間あいだに、大分だいぶ多くの男が塩を浴びに出て来たが、いずれも胴と腕と股ももは出していなかった。女は殊更ことさら肉を隠しがちであった。大抵は頭に護謨製ゴムせいの頭巾ずきんを被かぶって、海老茶えびぢやや紺こんや藍あいの色を波間に浮かしていた。そういう有様を目撃したばかりの私の眼めには、猿股一つで済まして皆みんなの前に立っているこの西洋人がいかにも珍しく見えた。

彼はやがて自分の傍わきを顧みて、そこにこごんでいる日本人に、一言ひとこと二言ふたこと何なにかいった。その日本人は砂の上に落ちた手拭てぬぐいを拾い上げているところであったが、それを取り上げるや否や、すぐ頭を包んで、海の方へ歩き出した。その人がすなわち先生であった。

私は単に好奇心のために、並んで浜辺を下りて行く二人の後姿うしろすがたを見守っていた。すると彼らは真直まっすぐに波の中に足を踏み込んだ。そして遠浅とおあさの磯近いそちかくにわいわい騒いでいる多人数たにんずの間あいだを通り抜けて、比較的広々した所へ来ると、二人とも泳ぎ出した。彼らの頭が小さく見えるまで沖の方へ向いて行った。それから引き返してまた一直線に浜辺まで戻って來た。掛茶屋へ帰ると、井戸の水も浴びずに、すぐ身体からだを拭ふいて着物を着て、さっさとどこへか行ってしまった。

彼らの出て行った後あと、私はやはり元の床几しょうぎに腰をおろして烟草タバコを吹かしていた。その時私はぽかんとしながら先生の事を考えた。どうもどこかで見た事のある顔のように思われてならなかつた。しかしどうしてもいつどこで会った人か想おもい出せずにしまつた。

その時の私は屈託くったくがないというよりむしろ無聊ぶりように苦しんでいた。それで翌日あくるひもまた先生に会った時刻を見計らって、わざわざ掛茶屋かけぢややまで出かけてみた。すると西洋人は来ないで先生一人麦藁帽むぎわらぼうを被かぶってやって来た。先生は眼鏡めがねをとって台の上に置いて、すぐ手拭てぬぐいで頭を包んで、すたすた浜を下りて行った。先生が昨日きのうのように騒がしい浴客よくかくの中を通り抜けて、一人で泳ぎ出した時、私は急にその後あとが追い掛けたくなった。私は浅い水を頭の上まで跳はねかして相当の深さの所まで来て、そこから先生を目標めじるしに抜手ぬきでを切った。すると先生は昨日と違って、一種の弧線こせんを描えがいて、妙な方向から岸の方へ帰り始めた。それで私の目的はついに達せられなかつた。私が陸おかへ上がって零しずくの垂れる手を振りながら掛茶屋に入ると、先生はもうちゃんと着物を着て入れ違いに外へ出て行った。

2. Нацумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 5(192), 2013. – Б. 7-34.

II

Мен тамаддихонада устозни учратганимда у кийимларини алмаштириб, денгизга кетишга шайланиб турган эди. Мен эса, аксинча, эндигина денгиздан чикиб, баданимни шамолга тутиб, куритаётгандим. Ўртамизда қора сочли оломон ғиж-ғиж эдики, агар ўша биргина ўзига хос вазият бўлмаганда, мен устозимни кўздан қочирган, хозир у билан учрашмаган бўлардим. Устозимнинг ёнида бир европалик киши ҳам бор эди.

Бизда учрайвермайдиган оқбадан бу европалик дарҳол эътиборимни ўзига тортди. У японча ёзги кимоносини йифма стулга қўйиб, денгиз томон кетмоқда эди. Эгнида ички кийимидан бошқа хеч нима бўлмагани учун бу ҳол менга ғалати туюлди. Икки кун олдин Юигахамада бўлганимда, соҳилда ўтириб, европаликларнинг қандай чўмилишини кузатган эдим. Барча эркакларнинг бадани ёпиқ, фақат қўл ва оёқлари очик эди, холос. Айниқса, аёллари бутун баданини ёпиб турувчи кийимда чўмилишар,

устига-устак, барчаларининг резинкали бош кийимлари ҳам бор эди. Улар сарик, кўк ва ҳаворанг бўлганидан, денгиз мавжланганида қўзга якқол ташланарди.

Мана бу европаликнинг ҳамманинг олдида биргина ички кийимда тургани менга ғалати туюлди.

У ёнида турган японга бир нималар деди-ю, икковлон сочиқларини қум устига ташлаб, денгизга тушиб кетиши. Уша япон менинг устозим эди.

Мен уларнинг шундок денгизга кириб боришларини зўр қизиқиши билан кузатиб турдим. Улар зумда сувга шўнғиб кетдилар. Соҳил яқинида одамлар гавжумлигидан холироқ жойгача сузиб бориши. Чўмила-чўмила, денгиздан анча узоклашиб кетиши. Бирордан сўнг яна соҳилга сузиб келиши. Тамаддихонага қайтиб, булоқ сувига чайнимасдан ҳам, апилтапил кийиниши-да, қаергадир кетиши.

Улар кетгандан сўнг мен ўриндиқда тамаки чекиб ўтириб, ҳалиги япон, яъни, ҳозирда устозим деб атайдиган киши ҳакида ўйланиб қолдим. Мен уни қаердадир кўргандек эдим. Менга шундай туюлмоқда эди. Лекин қачон, қаерда кўрганимни ҳар қанча уринмай, эслолмасдим.

Уша вактда менинг жиддий машғулотим бўлмаганлиги боис зерикиб қийналардим. Шунинг учун эртаси куни атайлаб устозим келадиган вақтни мўлжаллаб тамаддихонага ўтдим. Устозим у ерга ўзининг қамиш шляпасида ёлғиз кириб келди. Кўзойнагини ечиб, тезда бошига сочиқни ташлаб, қирғоқ томон кетди. Устоз худди кечагидек дам олаётганлар орасидан ўтиб, бир ўзи сувга тушар экан, яна уни кузатишга киришдим. Саёзликдан ўтиб, сувнинг анча чуқур жойигача бордим ва у ердан устоз томон сузиб кетдим.

Қарасам, устозим кечагидан фарқли ўлароқ, тўғри юриб эмас, балки айланиб қирғоқ томон қайтиб кетаяпти. Шу билан мен мақсадимга етолмадим, яъни устозни кузатиш режаси амалга ошмай қолди. Мен қирғоқча чиқиб, баданимдаги сувларини қўлим билан сирқиб, тамаддихонага кирдим. Устоз аллақачон кийиниб, ташқарига чиқиб кетаётган экан.

KUNDALIK TURMUSH JUHOZLARI BILAN BOG'LIQ SO'ZLAR TARJIMASI

Odamzodning madaniyatga bo'lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganini qayd etish lozim. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro'zg'or talabi taqozosi bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo'lgan asbob-anjomlar yasash va ularni xar xil ko'rinish va shakllarda ijod etish har bir millatga xos bo'lib, turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda geografik, ijtimoiy shart-sharoitlardan, madaniyat hamda qadriyatlardan kelib chiqqan holda yasalgan. Shu jumladan, yapon xalqida ham kundalik turmushda foydalanadigan jihozlar ularning o'ziga xos madaniyatini ifodalovchi belgilar hisoblanadi. "Qalb" asarida aynan shu toifa so'zlar qo'llanilgan bo'lib, ular tarjimada qanday berilgani qiziqarli tahlillarga olib keldi.

Quyida, etnomadaniyatga oid kundalik turmush jihozlari bilan bog'liq so'zlar transferi haqida misollar keltirib, tahlil qilinadi.

その代り私は板で造った足の畳み込める華奢な食卓を奥さんに寄附しました。(183-b.)

[sono kawari watakushi wa ita de tsukutta ashi no tatamikomeru kyasha na shokutaku wo oku-san ni kifu shimashita]

"Bunga minnatdorchilik sifatida men bekachga oyoqlari yig'iladigan, yupqa taxtalardan yasalgan xontaxtacha sovg'a qildim." (iyul-2013, 97-b.)

Ushbu misolda qo'llangan 食卓[shokutaku] so'zi bevosa "ovqatlanadigan stol" ma'nosini ifodalaydi. Lekin tarjimada bu ma'noni ifodalash uchun "stol" so'zidan foydalanilsa, oyoqlari uzun bo'lgan, baland va keng kursi kitobxon ko'z oldiga kelib, asliyatda berilgan predmet haqidagi tasavvur o'zgaradi. Zero, yaponlar ovqatlanishida ishlatiladigan mebel jihizi o'zbeklardagi xontaxtaga shaklan o'xhash bo'lgani uchun ham, tarjima matnida xontaxta so'zi o'rini qo'llanilgan. Garchi o'zbek madaniyatida "oyoqlari yig'iladigan, yupqa taxtalardan yasalgan" xontaxta ishlatilmasa-da, tarjima matnida qo'llangan "xontaxta" so'zi orqali kitobxon ko'z oldiga oyoqlari kalta, taxtadan yasalgan

jihoz kelishi tabiiy. Shuningdek, bu so'z o'quvchida "xontaxta" va unga oid detallar - ko'rpacha, dasturxon kabilarni ham ko'z o'ngida gavdalantiradi. Yaponlarda 食卓 [shokutaku]ning ustiga dasturxon yozilmaydi, biroq o'zbeklarning xontaxtasini dasturxonsiz tasavvur qilish qiyin.

Bino hamda xonalarning arxitekturasi, tuzilishi ham har bir millatning yashash joyining geografik tuzilishi, iqlim shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda qurilishi ma'lum. Tadqiqotning manba asarida ham xona tuzilishiga oid bir necha so'zlar kelgan bo'lib, ulardan biri 褙 – fusumadir. 褙[fusuma] yapon tilining katta izohli lug'atida "yog'och ramka shaklidagi, ikki tomoni qog'oz yoki mato yopishtirilgan surma eshik; katta yapon milliy xonasini qismlarga ajratish uchun ishlatiladi " deb izohlangan. Fusuma haqida "Yaponlar. Kimlar ular?" nomli kitobda "o'rtadagi suriladigan "fusuma" (devorchalar) xohlaganda uy shaklini o'zgartirishga imkon beradi: ikki xonani bir xonaga yoki katta xonani ikki, uch, to'rt xonaga ajratib yuborsa ham bo'ladi" , deb izoh berilgan. "Qalb" asarining o'zbek tilidagi tarjimasida asliyatdagi 褙[fusuma] realiyasi goh "to'siq", goh "surilma eshik" sifatida tarjima qilinganining guvohi bo'lindi.

十時頃になって、Kは不意に仕切の襖を開けて私と顔を見合わせました。 (201-b.) [jū jigoro ni natte, K wa fui ni shikiri no fusuma wo akete watashi to kao wo miawasemashita.]

"Ertalabki soat o'nliga yaqin K. birdan to'siqni ochib, ro'paramda paydo bo'ldi." (iyul-2013, 103-b.)

襖を開けると、其所に二人はちゃんと座っていました。 (182-b.) [fusuma wo akeru to, sono tokoro ni futari wa chanto suwatte imashita.]

"... surilma eshikni ochganimda, ular ikkalasi ham shu yerda ekanini ko'rdir." (iyul-2013, 97-b.)

すると襖の陰で「あなた、あなた」という奥さんの声が二度聞こえた。 (36-b.)

[suruto fusuma no kagede anata, anata to yū okusanno koega nido kikoeta]

"Surma eshik ortidan xotinining ovozi eshitildi." (may-2013, 20-b.)

襖[fusuma] so'zining bir necha xil shakllarda tarjima qilinishidan ko'rilib turibdiki, o'zbek tilida uning muqobili yo'q. Tarixi yapon madaniyatiga borib taqalishi nuqtai nazardan ushbu so'zni realiyalar qatoriga qo'shish mumkin. "Surma eshik" deb tarjima qilinganda 襖[fusuma] ning asosi qog'ozdan tashkil topadi degan tasavvur hamda uning "to'siq" vazifasida kelishi to'g'risidagi tushunchalar o'z-o'zidan yo'qoladi. O'zbek millatida tarixdan "surma eshik" haqida tasavvuri yo'qligi nuqtai nazaridan tarjimada 襖[fusuma] so'zi goh "to'siq" goh "surilma eshik" sifatida berilib, ma'nosi toraygan holda siljigan. Zero, to'siq so'zi o'zbek tili izohli lug'atida "yo'lni to'sish, berkitish, ihota qilish yoki ikki joyni bir-biridan ajratish uchun yasalgan qurilma; g'ov, ihota" deya ta'riflangan bo'lib, 襖[fusuma] so'zi "to'siq" deb tarjima qilingan holatlarda, uning xona ajratish uchun qo'llanilgan vazifasi o'z ifodasini topsa-da, "surilma eshik" tasavvuri yo'qoladi.

Shu o'rinda realiyaning tarjimada berilishi masalasiga o'z munosabatimizni bildirib o'tamiz. Realiyaning aynan o'zini berish kitobxonning o'zga yurt madaniyatidan boxabar bo'lishi, dunyoqarashini oshirishiga yordam beradi. Masalan, Kobo Abening Vahob Ro'zimatov tomonidan tarjima qilingan "Qumdag'i xotin" asarida 襖[fusuma] realiyasi o'z holicha qoldirilib, keyinchalik izoh sifatida "yapon uylarida yig'ib qo'yish mumkin bo'ladigan to'siq, ayni bir vaqtda eshik xizmatini ham o'taydi" deb berilgan ta'rifi asar o'quvchisida yapon xalqining turmush tarzi, madaniyatining bir qismi haqida taassurot uyg'ota olgan va shu bilan birga, asarning milliy xususiyati saqlab qolingga. Ya'ni to'g'ridan-to'g'ri tarjimaga o'tishdan avval, asliyatdagi realiyalarni saralash, ularni semantik hamda konnotativ mazmunini yetkazish, taqdim qilish yo'llarini izlash lozim. Chunki, milliy xos so'zlarni to'g'ri ifodalash asliyatning milliy koloritini bayon qilishi bilan birga, tarjima kitobxonining asliyat matn millati madaniyati bilan tanishishiga, dunyoqarashi o'sishiga hissa qo'shadi.

Qadimdan insoniyat har doim biror narsaning hajmi, og'irligi, quvvatini o'lchash uchun ehtiyoj sezgan. O'lchash uchun turli idish yoki boshqa

vositalardan foydalanilgan. Shu kuyi o'lchov birliklari paydo bo'lgan. Masalan, ozuqa mahsulotlarini o'lhash uchun "qadoq", "paysa", "misqol", hajm o'lchovi o'rnida "taxta", "enlik", "tanob", "gaz", shuningdek, pulni o'lhashda "chaqa", "so'lkavoy" kabi birliklardan foydalanishgan. Garchi, hozirgi kunda, ushbu o'lchov belgilarining deyarli ko'pchiligi ishlatilmasa-da, ularning kelib chiqish asosi mavjud bo'lgan.

Turmushda keng qo'llaniladigan o'lchov birliklari hududiy jihatidan uzoqda joylashgan xalqlar tilida nafaqat nomlanishi, balki ifodalagan tushunchasi orqali ham bir-biridan keskin farq qiladi. Asliyatda berilgan ma'lumotni to'g'ri qabul qilib olish uchun tarjima kitobxoni qo'llanilgan o'lchov birliklari xususida kerakli darajada tushuncha va tasavvurga ega bo'lishi kerak. Tushuncha va tasavvurni asar yozilgan xalq voqeligiga zid keltirmay to'g'ri, haqqoniy yaratish uchun tarjimondan o'lchov birliklari tarjimasining o'ziga xos tomonlari, murakkabliklari, chigalliklari mavjud bo'lib, tarjimonning ekvivalent sifatida bergen birligi asar o'quvchisida to'g'ri tasavvur uyg'otishi muhim. Shuningdek, tarjimon ham tildagi barcha imkoniyatlarini ishga solgani holda, asl matndagi har bir birlikning tarjimada ravon va bejirim, binobarin, barchaga tushunarli bo'lishiga erishishi zarur. Zero, kitobxonni asarning asl nusxa yoki tarjima ekanidan ham ko'ra, qo'liga olgan asardan estetik zavq va ma'naviy ozuqa olish masalasi qiziqtiradi.

Keyingi tahlilga tortilgan so'z "tatami" bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda "taxlash, taxlangan narsa" ma'nosini anglatib, yapon tilining katta izohli lug'atida "yapon an'anaviy uylarida polga to'shaladigan, qamishdan to'qilgan, guruch somoni bilan to'ldirilgan to'shamma. To'shamma atrofi mato bilan qoplanadi" deb izohlangan. "Tatami" Yaponiyada xonadonlar poliga gilam o'rniga yoziladigan to'shak bo'lib, asosan somondan to'qiladi va to'ldiriladi. Qalinligi 3sm.dan 6sm.ni tashkil etuvchi ushbu tatamilarni deyarli barcha xonadonlarda uchratish mumkin. Tatamining tarixi Xeyan davri (794-1191) ga taqalib, u faqatgina imperator yoki mansabdor insonlarning uylarida bezak sifatida ishlatilgan. Tatami noto'g'ri to'shalsa, xonadonga baxtsizlik olib keladi

degan qarashlar ham mavjud . Tatamining aniq belgilangan o'lchamlari mavjud bo'lib, uy o'lchamlarida, xonalarni o'lchashda ham “tatami” o'lchov birligidan foydalanishadi.

“Qalb” asarida ham uy katta-kichikligini bildirish uchun tatami yapon o'lchov birligi ishlatilgan bo'lib, tarjimon uning ekvivalenti sifatida “bo'yra” so'zini ishlatgan. Ya'ni,

玄関を上って私のいる所へ通ろうとするには、是非この四畳を横切らなければならぬのだから、実用の点からみると、至極不便な室でした。尤最初は同じ八畳に二つ机を並べて、Kは狭苦しくても一人で居る方がいいと伝って、自分で居る方を振んだのです。(175-b.) [genkan wo nobotte watakushi no iru tokoro e tōrō to suru ni wa, zehi kono yon jō o yokogiranakere ba naranai no da kara, jitsuyō no ten kara miru to, shigoku fuben na muro deshi ta. yū saisho wa onaji hachi jō ni futatsu tsukuewo narabete, K wa kyō kushiku tte mo hitori de iru hō ga ī to tsutatte, jibunde iru hō wo eranda no des.]

“Xonamning yonida to'rt bo'yra keladigan yana bir xona bor edi. Avvaliga uni o'zim bilan o'sha sakkiz bo'yrali xonaga joylashtirmoqchi bo'lgandim, lekin uning o'zi shu xonani tanladi, tor bo'lsa ham yolg'iz turishimga qulay, dedi.” (iyul-2013, 94-b.)

“Bo'yra” so'zi O'zbekiston milliy entsiklopediyasida quyidagicha ta'riflanadi: “Bo'yra – pishgan qamish po'stini tozalab to'qiladigan to'shama. Uy-joylarda namat (kigiz), gilam, palos tagidan to'shaladi. Bo'yra paloslarni tuproq va zaxdan saqlagan; imorat tomini yopishda vassa ustidan qo'yilgan, mevalarni yoyib quritishda, quritilgan mevalarni qishda saqlashda bo'yrani choclab, qop o'rnida ishlatadilar”. O'zbek tilining izohli lug'atida esa, “tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama” deya izohlanib, o'zbek tilida ham o'lchov uchun “bir bo'yra” so'z birikmasi ham qo'llanilishi ma'lum bo'ldi. Bir bo'yra – 1) eni-bo'yi bo'yra hajmicha keladigan. Misol, bir bo'yra yer. “..uyning orqa devori bir bo'yra eni kesib tushirilgan bo'lib, qorayib ko'rinardi”.

(A. Qodiriy, O'tgan kunlar.), "Bir bo'yra yerning pichani o'rib olinsa, bir mashina chiqaveradi." (M. Ahmadjonov, Balli zarbdorlar!). 2) Bir bo'yranning ustiga joy bo'ladigan. Misol, Bir bo'yra sholi. Tatamining ustidan gilam yoki sholcha to'shalmaydi, aksincha o'zbek xonadonlarida bo'yra ustidan sholcha yoki gilam to'shalmasa, nochorlik belgisi ekanligini "O'zbek tilining izohli lug'ati"da badiiy asardan keltirilgan misoldan aniqlandi. "Eslaringdami.. Zokirxo'ja qassoblar gilam ustida o'tirganda, biz o'tirishga bo'yra ham topa olmas edik." (P.Tursun, O'qituvchi) .

Ushbu o'rinda "tatami" so'ziga "bo'yra" so'zini tanlanishida tabiiy xom-ashyodan tayyorlanishi, ikkisining ham asosiy tayyorlanish xom-ashyosi qamish ekanligi, ularning yerga, polga to'shalishi kabi ma'nolari birlashtirib turishi bilan birga, ikki so'zning ham o'z millati doirasida xona o'lchovi sifatida ishlatilishi yuzasidan asliyatdagi "tatami" so'zining muqobili sifatida tushunish mumkin. Bu yerda tarjimon tatami realiyasini transliteratsiya shaklida ham berishi mumkin edi, zero hozirda tatami ko'pgina sport turlari (karate, dzyudo)da kurashish to'shagi sifatida ishlatilib, bu so'z sport anjomni sifatida dunyo leksikasiga kirgan. U holda, kitobxonda tabiiy xom-ashyodan tayyorlangan to'shama emas, balki sport anjomiga xos yerga to'shaladigan teri yoki charm qoplamali sport to'shamasi assotsiyasi paydo bo'lган bo'lar edi. Tarjima qilish jarayonida tarjimon asar yozilgan davrni ham inobatga olib so'z tanlagani asarning kommunikativlik jihatini ta'minlab bergen bo'lsa, asarni o'zbek tilida o'qiganda o'zbekona detallarning uchrashi, u bilan bog'liq bo'lган assotsiatsiyalar transfer bo'lishiga sabab bo'ladi.

8-MAVZU

INSON XATTI-HARAKATLARI VA FE'L-ATVORIGA OID SO'ZLAR

Albatta, insonlar xatti-harakati ham qaysidir ma'noda madaniyat asosida shakllangan bo'ladi. Zero, madaniyatni belgilovchi omillardan biri bo'lgan imoshoralar ham xatti-harakat belgilaridan biri bo'lib, amalga oshirilganda, xuddi kodlar singari ma'noga ega bo'ladi.

“Qalb” romanida ham xatti-harakat bilan bog'liq bir nechta misollar uchradi:

このしゃくやく場だけのそばにある古びた縁台のようなものの上に先生は大の字なりに寐た。 (63-b.)

[kono shakuyaku-jō dake no soba ni aru furubita endai no yō na mono no ue ni sensei wa dainoji-nari ni nuta.]

So'zma-so'z tarjima: “Ushbu piyozgul bog'inining yonida eski o'rindiqqa o'xshagan narsaning ustiga ustozim 大 harfi misoli yotib oldi.”

“Uvat chetida bir eski o'rindiq bor ekan, ustozim shu o'rindiqqa yonboshlab oldi.” (JA, may-2013. 24-b.)

Asliyatdagi 先生は大の字なりに寐た [sensei wa dai no ji nari ni neta] iborasi o'zbek tiliga “ustozim shu o'rindiqqa yonboshlab oldi” deb qilingan tarjima matnida jumla o'z madaniy xususiyatlarini yo'qotib, o'zbek madaniyatidagi xatti-harakatga transfer bo'lgan.

Yapon tilidagi 大 ieroglifi “katta, bahaybat” ma'nosini anglatadi. Lekin ushbu tahlil qilinayotgan jumlada asar muallifi uning aynan ieroglyph shakliga e'tibor qaratilishini xohlab, 大の字なり [dai no ji nari ni] ya'ni, “大 harfi misoli” deb bergen. Agar ieroglyph shakliga e'tibor berilsa, oyoq-qo'lini keng yoyib yotgan odamga o'xshaydi. O'zbek tilida ieroglifning mavjud emasligi hamda o'zbeklar tasavvurida ustozning yoki yoshi katta insonning shogirdi yonida chalqancha osmonga qarab, qo'l-oyoqlarini yozib (大 ieroglifi shakli misoli) yotib dam olishi tushunchasi, tasavvuri yo'qligi yuzasidan tarjimon o'zbekona assotsiatsiyaga xos

“yonboshlamoq” so’zini tanlagan. “Yonboshlamoq” so’zi o’zbek tili izohli lug’atida “bir yonbosh bilan tirsakka tayanib yotmoq” deya ta’riflangan bo’lib, Oybekning Tanlangan asarlar kitobidan misol keltiriladi: Yormat boshini ko’tardi, bir qo’lini yerga tirab yonboshladi . Ya’ni tarjima matnida jumlaning ushbu qismi harakatning boshqa shakliga o’zgartirilib, kompensatsiya holida berilgan. Komissarovga ko’ra, kompensatsiya tarjima usulida tarjima jarayonida asl matndagi ma’no elementlari tarjima matnida boshqa biron-bir vosita orqali yetkaziladi va yo’qolgan ma’no to’ldiriladi ya’ni kompensatsiya qilinadi. Biroq, bu holat asl matnning mazmuniga ta’sirini o’tkazmaydi. Tahlil qilinayotgan ushbu misolda ham asarning mazmuniga ta’sir o’tkazmagan, ya’ni, asarda ustozidam olish uchun bog’ chetidagi o’rindiq ustiga dam olish uchun yotgan. Asliyatda 大 ieroglifini misol qilgan holda qo’l-oyoqlarini quloch yozib yotib dam olish shakli bayon etilgan bo’lsa, tarjima matnida harakat shakli o’zgarib, tarjima matni o’quvchilariga tushunarli holatga o’zgartirilgan va shu bilan birga asliyatdagi jumlaning “yo’l yurib tin olmoq, hordiq chiqarmoq, xayol surmoq” kabi mazmuni saqlab qoltingan. Buning natijasida gapdagi asliyatga mansub madaniy belgi yo’qolib, o’zbek millati erkaklariga xos “yonboshlab olish” so’zida supada yonboshlab dam olish kabi tasavvurga transfer bo’lgan.

私もあり長くなるので、すぐ席をたった。(84-b.)

[watashi mo amari nagaku naru node, sugu seki wo tatta.]

“Men ham ancha o’tirib qolganim uchun, ketishga otlandim”

(may-2013, 33-b.)

Ushbu jumlaning birinchi qismida 私もあり長くなるので [watashi mo amari nagaku narunode] “bir joyda uzoq qolib ketish” ma’nosini bersada, so’zma-so’z ma’nosini tarjima qilganda “men ancha uzoq bo’lganim uchun” deb, harakat nomi ko’rsatilmaydi. O’zbeklarda esa “bir joyda uzoq qolib ketish” iborasi “o’tirib qoldim”, “qolib ketdim” birikmalari bilan beriladi.

Jumlaning ikkinchi qismida すぐ席をたった [sugu seki wo tatta] “darhol o’rnimdan turdim” ma’nosidagi jumla tarjima matnida “ketishga otlandim”

o'zbek tiliga xos ko'chma ma'noli so'z orqali ekvivalent tanlangan. "Otlanmoq" so'zining "biror joyga borish uchun shaylanmoq, tayyorlanmoq, hozirlik ko'rmoq" kabi ma'nolaridan kelib chiqib, ushbu jumlada harakat tezligi tasavvuri sekinlashgani nuqtai nazaridan ma'no siljigan. Chunki asliyatdagi "darhol o'rnimdan turdim" jumlasida "hoziroq ketaman" ma'nosi tushunilsa, "ketishga otlandim" birikma ma'nosida "tayyorgarlik ko'rmoq" konnotatsiyasi mavjudligidan harakat tezligi sekinroq yoki noma'lumdir.

「だから油断ができないんです。」(67-b.)

[dakara yudan ga dekinaidesu.]

"Shuning uchun andisha-pandishani yig'ishtirib qo'y." (may-2013, 26-b.)

Bu yerda ustoz meros masalasida o'z boshidan o'tkazgan salbiy xotiralarini so'zlab berib, shogirdi ham u kabi xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun berayotgan maslahati tahlilga tortilgan bo'lib, o'zbeklarda otadan meros talab qilib olish, hurmatsizlik, andishasizlik, beadablik bo'lishi nuqtai nazaridan, asliyatdagi 油断ができないんです [yudan ga dekinaidesu] ya'ni merosni talab qilishda "hushyorlikni yo'qotma" jumlesi tarjima matnida "andisha-pandishani yig'ishtirib qo'y" sifatida tarjima qilingan. Andisha "ketini, oqibatini o'ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza; sharm-hayo, or-nomusga amal hissi" o'zbek qadriyatlarida ota-onal oldidagi muhim hissiyot ekanligidan "andisha-pandishani yig'ishtirib qo'y" jumlesi bilan asliyatdagi gap mazmunini yanada kuchliroq yetkazib bergen. Asliyatdagi ogohlantirish mazmunidagi birikma tarjima matniga o'tganda buyruq ohangini ham qo'shib olib siljiganini kuzatish mumkin.

Keyingi jumlada ham shunga o'xshash holatni ko'rish mumkin:

そのころ私はまだ癪持ちでしたから、不真面目に若い女から取り扱われると腹が立ちました。(198-b.)

[sono koro watashi wa mada kanshaku mochi deshita kara, fu majime ni wakai onna kara toriatsukawareru to hara ga tachimashita.]

"O'zi bo'larim bo'lib turgani yetmay, qizning bunday betakallufligi o'lganning ustiga tepganday bo'ldi." (iyul-2013, 102-b.)

Bu jumlada asliyatda kelgan bir qancha so'zlar iboralar vositasida tarjima qilingan. Misolni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak quyidagicha aks etadi:

“Bu payt mening hali g'azabim tarqamagani uchun, qizning bunday yengiltak munosabati jahlimni chiqardi”

Ushbu jumla asarning kul'minatsion nuqtasi bo'lib, sevgan qizini o'z do'stiga rashk qilib yurgan qahramonni, qizning jiddiy bo'l'magan gaplari jahlini chiqaradi. Va do'stiga qarshi ma'naviy hujum boshlaydi, ya'ni uning dindor ekanligi, “ortiqcha” munosabatlarga e'tibor bermaslik uning vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Do'sti esa ushbu ma'naviy hujum ta'sirida o'z joniga qasd qiladi.

Yuqoridagi jumlaning iboralar vositasida tarjima qilinishi, ya'ni asliyatdagi “g'azabim tarqamagani uchun” jumlesi tarjima matniga o'zbekona “o'zi bo'larim bo'lib turgani yetmay” deb tarjima qilingan bo'lib, g'azabi tarqamagan holatida qizning yengiltak harakatiga nisbatan qahramonning asliyatda shunchaki “jahlini chiqargan” bo'lsa, tarjima matnida “o'lganning ustiga tepganday bo'ldi” deya tarjima qilingani asar badiyilagini yanada kuchaytirib, o'zbekona ruh bag'ishlaydi. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu usulda qilingan tarjimada qahramonning his-tuyg'ulari aniq bayon etilmay, ma'noning kengayishiga olib kelgan. Jumlda qahramonning jahli chiqqani emas balki, xafa bo'lgani tasvirida ma'no siljib, transfer sodir bo'lgan.

Badiiy asar tarjima qilinganda, albatta undagi g'oyalar, millatning dunyoqarashini aks ettiruvchi omillar ham tarjima matnida o'ziga xos aks etadi. Asliyatdagi so'zni muqobilini berish va asliyat ma'nosining to'la yetkazish uchun qo'llanilgan har bir so'z yoki iboraning o'z ma'no maydoni ham mavjud bo'lib, ana shunday tarjimalarda madaniyatning transfer bo'lish ehtimoli katta. Asliyatning mazmunini, g'oyasini to'liq yetkazib berish esa, tarjimonning mas'uliyatli vazifalaridandir. Tarjima mohir tarjimon tomonidan amalga oshirilganda ham ma'lum ma'nodagi transfer kuzatiladi. Biroq, yuqorida qayd etib tahlil qilgan misollar orasida xato tarjima orqali sodir bo'lgan transferlar ham kuzatildi. Badiiy asar bir millatning dunyoqarashi, g'oyalari, maqsadlari ifoda

etiladigan manba sifatida qaraladigan bo'lsa, tarjimaga mas'uliyat bilan yondashish talab qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarjimalarda qaysi so‘zlar orqali transferni kuzatdingiz?
2. Quyidagi asl matnni tarjima matni bilan solishtiring.

六

私はそれから時々先生を訪問するようになった。行くたびに先生は在宅であった。先生に会う度数どすうが重なるにつれて、私はますます繁しげく先生の玄関へ足を運んだ。

けれども先生の私に対する態度は初めて挨拶あいさつをした時も、懇意になったその後のちも、あまり変りはなかった。先生は何時いつも静かであった。ある時は静か過ぎて淋さびしいくらいであった。私は最初から先生には近づきがたい不思議があるようになっていた。それでいて、どうしても近づかなければいけないという感じが、どこかに強く働いた。こういう感じを先生に対してもっていたものは、多くの人のうちであるいは私だけかも知れない。しかしその私だけにはこの直感が後になって事実の上に証拠立てられたのだから、私は若々しいといわれても、馬鹿ばかげていると笑われても、それを見越した自分の直覚をとにかく頼もしくまた嬉うれしく思っている。人間を愛し得うる人、愛せずにはいられない人、それでいて自分の懐ふところに入いろうとするものを、手をひろげて抱き締める事のできない人、——これが先生であった。

今いった通り先生は始終静かであった。落ち付いていた。けれども時として変な曇りがその顔を横切る事があった。窓に黒い鳥影が射さすように。射すかと思うと、すぐ消えるには消えたが。私が始めてその曇りを先生の眉間にけんに認めたのは、雑司ヶ谷ぞうしがやの墓地で、不意

に先生を呼び掛けた時であった。私はその異様の瞬間に、今まで快く流れていた心臓の潮流をちょっと鈍らせた。しかしそれは単に一時の結滯けったいに過ぎなかった。私の心は五分と経たたないうちに平素の弾力を回復した。私はそれなり暗そうなこの雲の影を忘れてしまった。ゆくりなくまたそれを思い出させられたのは、小春こはるの尽きるに間まのない或ある晩の事であった。

先生と話していた私は、ふと先生がわざわざ注意してくれた銀杏いちょうの大樹たいじゅを眼めの前に想おもい浮かべた。勘定してみると、先生が毎月例まいげつれいとして墓参に行く日が、それからちょうど三日目に当っていた。その三日目は私の課業が午ひるで終おえる楽な日であった。私は先生に向かってこういった。

「先生雑司ヶ谷ぞうしがやの銀杏はもう散ってしまったでしょうか」

「まだ空坊主からぼうずにはならないでしょう」

先生はそう答えながら私の顔を見守った。そしてそこからしばし眼を離さなかつた。私はすぐいった。

「今度お墓参はかまいりにいらっしゃる時にお伴ともをして宜よござんすか。私は先生といっしょにあそこいらが散歩してみたい」

「私は墓参りに行くんで、散歩に行くんじゃないですよ」

「しかしついでに散歩をなすったらちょうど好いいじゃありませんか」

先生は何とも答えなかつた。しばらくしてから、「私のは本当の墓参りだけなんだから」といって、どこまでも墓参ぼさんと散歩を切り離そうとする風ふうに見えた。私と行きたくない口実だか何だか、私にはその時の先生が、いかにも子供らしくて変に思われた。私はなおと先へ出る気になった。

「じゃお墓参りでも好いいからいっしょに伴つれて行って下さい。私もお墓参りをしますから」

実際私には墓参と散歩との区別がほとんど無意味のように思われたのである。すると先生の眉まゆがちょっと曇った。眼のうちに異様の光が出た。それは迷惑とも嫌悪けんおとも畏怖いふとも片付けられない微かすかな不安らしいものであった。私は忽たちまち雑司ヶ谷で「先生」と呼び掛けた時の記憶を強く思い起した。二つの表情は全く同じだったのである。

「私は」と先生がいった。「私はあなたに話す事のできないある理由があって、他ひとといっしょにあそこへ墓参りには行きたくないです。自分の妻さいさえまだ併せて行った事がないのです」

VI

Шундан сўнг устозимни тез-тез йўқлаб турадиган бўлдим. Ҳар сафар уни уйидан топардим. Учрашувимиз кўпайган сари, оёкларим яна устозимнинг уйи томон бошлайверарди. Унинг дўстона муносабати биринчи учрашганимиздагидан деярли ўзгармаган эди. У ҳар доим ўзини босик тутарди. Баъзида бундай босиклик менга малол келар эди. Мен аввал бошданоқ унда одамлардан аллақандай ётсираш борлигини сезган эдим. Мен эса ундаги бу ҳисни йўқотишга азму қарор қилгандим. Балки, буни фақат мен ҳис қилгандирман. Атрофимдагилар мени ҳали ёш деб, устимдан кулганларида ҳам, вакт ўтиб, менинг бу ички туйғуларим ҳақиқатга айланди, бундан ўзим ҳам ҳалигача ҳайратда қоламан. Инсонларни сева оладиган, мухаббатсиз ҳаётини тасаввур қилолмайдиган, атрофидагиларни қучоқ очиб ўз бағрига қабул кила оладиган инсон – бу менинг устозим эди.

Хозиргина айтиб ўтганимдек, устозим ўша-ўша босиклигича қолди.

Бироқ вақти-вақти билан унинг юзида ғалати бир соя пайдо бўлар, бу соя худди ойна олдидан лип этиб учиб ўтган қора күшдек, тезда ғойиб бўларди. Бу сояни мен илк бор Зошигаядаги қабристонда, уни бор овозим билан чақирганимда сезган эдим. Ўшанда юрагим тўхтаб қолгандек бўлганди. Бу узокқа чўзилмади. Беш дақика ўтар-ўтмас, мен аввалги ҳолатимга қайтдим ва бу қўрқинчли сояни ҳам унутдим. Бу илк баҳор оқшомида тўсатдан эсимга тушди. Устозим билан сұхбат асносида мен ўша дарахтни тилга олдим. Устозим ҳам дарров эслай қолди. Мен устозимга дедим:

- Зошигаядаги ўша дарахт аллақачон сарик тусга киргандир?
- Балким, аммо бутунлай эмас.

Шундай дея, устозим менга қайрилиб қаради-да, бир неча сония тикилиб қолди.

– Сиз қачон қабристонга борасиз? Мен ҳам сиз билан бирга борсам бўладими? Сиз билан сайр этиш мен учун жуда завқли.

– Мен қабристонга сайр қилгани эмас, зиёрат қилгани бораман.

– Бир йўли сайр қилиб келсак, яхши бўлмасмикин? Нима дейсиз?

Устозим ҳеч нима деб жавоб бермади. Бирпастдан сўнг такрорлади:

– Мен фақат қабрни зиёрат қилгани бораман.

Зиёратга боришини таъкидлашидан мен билан бирга бормасликка сабаб қидираётгандек кўринди. Устозим ўзини болалардек тутиши менга ғалати туюлди. Аммо бу нарса мени у билан бирга бориш хоҳишидан қайтара олмас эди.

– Майли, зиёратга бўлса ҳам мени бирга олиб кетинг, мен ҳам зиёрат қилмоқчиман, – дедим мен.

Очиғини айтганда, сайр билан зиёратнинг фарқига бормасдим.

Устозим қовоғини солиб, менга қаради. Унинг кўзлари тубида ўзгача оташ акс этар эди. Бу енгилгина бесаранжомликми, ёқимсиз туйғуми ёки норозиликми – билолмадим.

– Биласизми? – дея гап бошлади устозим. – Биласизми, баъзи бир сабабларга кўра мен бу ҳақда гапира олмайман ва ким бўлишидан қатъи назар, бирорвнинг мен билан бирга қабристонга боришини истамайман.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
<https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Бархударов Л. С. Язык и перевод. – М.: Международные отношения, 1975. – С. 240.
3. Лобачёва Д. В. Культурный трансфер: определение, структура, роль в системе литературных взаимодействий. Вестник ТГПУ. – 2010. – Выпуск 8 (98). – С. 23-27.
4. Саломов F. Рус тилидан ўзбекчага мақол ва идиомалар таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти, 1961. – Б. 159.
5. Нацумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 5(192), 2013. – Б. 7-34.
6. Нацумэ Сосэки. «Қалб». Жаҳон адабиёти, № 6(193), 2013. – Б. 115-139.
7. Шамсиева Б. Таржима матни маданият трансфери сифатида (Нацумэ Сосэкининг “Қалб” асари асосида) Матн. Монография. – Тошкент: ТДШУ 2023. 145 6.
8. 夏目漱石. 「こころ」 . Printed in Japan, Shinchousha, 1952. - P. 260.
9. アンソニー・ピム。翻訳理論の探求。武田かよこ訳 Misuzo Shobo, 2010. – P. 290.
10. モナ・ベイカー。翻訳研究のキーワード。藤波文子訳。研究者 2013. – P. 303.